Mazkur jinoyatning maxsus obyekti iqtisodiyot sohasining xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir. Turdosh obyekti iqtisodiyot asoslariga rioya qilish tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Erkin fuqarolik muomalasidagi tovarlar va boshqa predmetlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish tartibi va shartlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlarni bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining bevosita asosiy obyekti deb hisoblash o'rinli bo'ladi. Zotan, bojxona ishining tarkibiy qismi sifatida ular O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksida ko'rsatilgan davlat bojxona siyosatining maqsad va vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati bevosita asosiy obyekt bilan bir qatorda bevosita qo'shimcha va bevosita fakultativ obyektlarga ham tajovuz qiladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning bevosita qo'shimcha obyekti mazkur jinoyat predmeti va uni sodir etish usullariga bog'liq. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish uchun bunday obyekt sifatida bojxona organlarining normal faoliyati amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan tovarlar va predmetlarni noqonuniy o'tkazishda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarish tartibi buziladi. U tovar va predmetlarni chegaradan o'tkazishning umumiy



tartibi, alohida tovar va predmetlar guruhiga nisbatan esa maxsus tartibni o'z ichiga oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasini mukammal tahrirda deb aytish qiyin. Qonun tahririga ko'ra, JKning 246-moddasida nazarda tutilgan predmetlardan tashqari barcha predmetlarni 182-modda dispozitsiyasida belgilangan usullar orqali davlat chegarasidan o'tkazish bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish deb qaraladi. Ammo ayrim turdagi tovarlarning davlat va jamiyat uchun alohida ahamiyati, ularni chegaradan qonunga xilof ravishda o'tkazish boshqa predmetlarni o'tkazishdagi xavfga nisbatan ijtimoiy xavfi yuqoriroq ekanligini inobatga olib, ayrim turdagi predmetlarni JKning 182-moddasi yurisdiksiyasidan chiqarish va 246-moddaning yurisdiksiyasiga kiritish maqsadga muvofiq.

Avvalo, xavfli chiqindilarni kontrabanda predmeti sifatida belgilash o'rinli. Ma'lumki, tabiatda ishlab chiqarish chiqindisiz bo'lib, u yopiq halqa holatida bo'ladi. Ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy mahsuli esa yangi ishlab chiqarish sikli uchun omildir. Tabiatnikidan farqli o'laroq, inson tomonidan ishlab chiqarish chiqindili bo'lib, uning yakuniy mahsuli keyingi yangi sikl ishlab chiqarishi uchun omil bo'lmaydi, balki chiqindiga aylanadi. Natijada, birinchidan, tabiiy resurslar zaxirasi kamayib boradi, ikkinchidan, chiqindilar ishlatishga yaroqli bo'lgan yerlarni egallab, atmosfera havosi, yer usti va yer osti suvlari, yerlarni zaharlashiga sabab bo'ladi [11, 3-b.]. "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, xavfli chiqindilar deganda, tarkibida xavfli (zaharlilik, yuqumlilik, portlovchanlik, tez alangalanib yong'in chiqaruvchanlik, reaksiyaga tez kirishuvchanlik, radioaktivlik) xususiyatlardan loaqal bittasiga ega moddalar mavjud bo'lgan, bunday moddalar fuqarolar sog'lig'i va hayoti, atrof-muhitga o'zi mustaqil tarzda ham, shuningdek, boshqa moddalarga qo'shilganda ham bevosita yoki potensial xavf tug'diradigan miqdorda va shaklda mavjud bo'lgan chiqindilar tushuniladi.

Ayrim olimlar xavfli chiqindilarni taqiqlangan va taqiqlanmagan turlarga bo'ladilar. Ularning fikriga ko'ra, taqiqlangan xavfli chiqindilar deganda ishlab chiqarish, iste'mol jarayonida hosil bo'ladigan qonun hujjatlari bilan taqiqlangan chiqindilar tushuniladi. Ular taqiqlangan chiqindilarni radioaktiv, bakteriologik va kimyoviy turlarga bo'ladilar. Bundan tashqari, chiqindilar hosil bo'lishining eng yuqori darajasidan ortiq ravishda hosil bo'lgan chiqindilar ham taqiqlangan chiqindilar hisoblanadi [12, 64-b.].

Bakteriologik chiqindilar deganda o'zining iste'mol xususiyatini yo'qotgan, tarkibida mikroskopik (asosan bir hujayrali) organizmlar guruhiga kiradigan bakteriyalar, rikketsiyalar va hokazolar hamda o'simlik, hayvon va insonlarda kasallik uyg'otuvchi patogen bakteriyalar mavjud bo'lgan xomashyo qoldiqlari, materiallar, yarimfabrikatlar va boshqa mahsulotlar tushuniladi.

Kimyoviy chiqindilar deganda o'zining iste'mol xususiyatini yo'qotgan, tarkibida D.I. Mendeleyevning davriy elementlar jadvaliga kiruvchi kimyoviy elementlar, shuningdek, toksik xarakterga ega bo'lgan kimyoviy va boshqa birikmalar bo'lgan mahsulotlar, xomashyo qoldiqlari va hokazolar tushuniladi. Kimyoviy chiqindilar tarkibiga insonlar sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazuvchi zaharlovchi moddalar, toksik kimyoviy birikmalar, nerv-shol kasalligiga duchor etadigan moddalar (tabun,

zarin, zoman), umumzaharli moddalar (sinil kislotasi, xlorsian) va boshqa moddalar kiradi.

Xavfli chiqindilar atrof-tabiiy muhit va inson sog'lig'iga zararli ta'sir darajasiga qarab vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan mezon asosida sinflarga bo'linadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida xavfli chiqindilar 5 sinfga bo'linadi: eng xavfli, xavfli, mo'tadil xavfli, xavfi kam bo'lgan va amalda xavfli bo'lmagan chiqindilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, xavfli chiqindilar atrof-tabiiy muhit va inson sog'lig'iga zarar yetkazishi bilan bir qatorda jamoat xavfsizligi uchun ham o'ta xavfli predmetlar hisoblanadi.

Shu sababdan ham xavfli chiqindilar kontrabanda predmeti sifatida qonunchilikda belgilab qo'yilishi lozim.

Ma'lumki, JKning 246-moddasida diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallar kontrabanda predmeti sifatida e'tirof etilgan. Albatta, mazkur materiallarning kontrabanda predmeti sifatida belgilanishida, eng avvalo, ularni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish taqiqlangani, qolaversa, jamoat xavfsizligiga katta zarar yetkazishi yoki shunday zarar yetkazishning real xavfini keltirib chiqarishi mumkinligi inobatga olingan.

Shu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrda PF-5286-son Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasiga import qilinishi (olib kelinishi) taqiqlangan buyumlar ro'yxati tasdiqlangan.

Mazkur ro'yxatdagi davlat va jamiyat tuzumini qo'porish, hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik va davlat suverenitetini buzishga yo'naltirilgan, urush, terrorizm, zo'ravonlik, milliy ustunlik va diniy nafrat, irqchilik va uning turlari (antisemitizm, fashizm)ni targ'ib qiluvchi bosma asarlar, qo'lyozmalar, klishe'lar, rasmlar, fotosuratlar, fotoplyonkalar, negativlar, kino-, video- va audiomahsulotlar, gramzapislar, ovozli materiallar, shuningdek, pornografiya mazmunidagi materiallar O'zbekiston Respublikasiga import qilinishi taqiqlangan buyumlar sifatida qayd etilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bobidan o'rin olgan 244¹-moddasi, ya'ni jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish jinoyatida "diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan materiallar" bilan bir qatorda "qirg'in solish yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallar" ham jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan materiallar ekanligi inobatga olinib, 244¹-moddada nazarda tutilgan jinoyatning predmeti sifatida belgilab qo'yilgan.

Qolaversa, yuqorida qayd etilgan materiallarni tarqatish xavfi diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish xavfi bilan deyarli bir xil. Lekin nima sababdan qonun chiqaruvchi tomonidan bu jihatga e'tibor qaratilmagan? Bu esa amaliyotda yuqoridagi materiallar kontrabanda predmeti sifatida belgilanmaganligi bois ularni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish davlat va jamoat xavfsizligiga katta zarar yetkazganligi sababli ijtimoiy



xavflilik darajasi yuqori bo'lishiga qaramasdan, aslida, erkin fuqarolik muomalasida bo'lgan tovarlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazganlik uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksining 182-moddasi, ya'ni bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati sifatida noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga olib kelmoqda. Bunday holat, birinchidan, ushbu qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligini inobatga olib, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llanadigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi lozimligi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligi, ayb va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerakligini talab qiluvchi "odillik prinsipi"ga, ikkinchidan, yangi jinoyat sodir etilishining odini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanishi kerakligini talab qiluvchi "insonparvarlik prinsipi"ga ziddir.

Shu sababdan yuqorida qayd etilgan materiallarni kontrabanda predmeti sifatida belgilab, albatta, jazo tayinlashda odillik, insonparvarlik hamda individuallik qoidalariga amal qilgan holda bunday qilmishlarga nisbatan og'irroq sanksiyalarni qo'llab, jazo tayinlash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi predmetlarni ham JKning 182-moddasi qamrovi doirasidan chiqarish, ular uchun javobgarlikni og'irlashtirish hamda JKning 246-moddasi qamrovidagi predmetlar doirasiga kiritish tavsiya etiladi: davlat va jamiyat tuzumini qo'porish, hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik va davlat suverenitetini buzishga yo'naltirilgan, urush, terrorizm, zo'ravonlik, milliy ustunlik va diniy nafrat, irqchilik va uning turlari (antisemitizm, fashizm)ni targ'ib qiluvchi predmetlar, shuningdek, pornografiya mazmunidagi materiallar.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning obyektiv tomoni JKning 246-moddasida ko'rsatilgan predmetlardan tashqari boshqa predmetlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan har qanday usul bilan, shu jumladan, xalqaro pochta orqali jo'natish, quvurli transport va elektr uzatish tarmoqlaridan foydalanish yo'li bilan o'tkazish, ya'ni ularni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish (eksport qilish) yoki uning hududiga olib kirish (import qilish)dan iborat bo'ladi. Odatda bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish faol harakatlar shaklida sodir etiladi, biroq uni jinoiy harakatsizlik yo'li bilan sodir etish holatlari ham uchrab turadi. Bunday holatlar jinoyat bir nechta sheriklar, shu jumladan, uyushgan guruh tomonidan sodir etilib, ayrim sheriklarning jinoyatni sodir etishda tutgan o'rni tovarlarni bojxona chegarasidan bevosita o'tkazish harakatlarini sodir etishga bog'liq bo'lmasligi mumkin.

Obyektiv tomondan JKning 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyat O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan turli shakllarda: bojxona nazoratini chetlab; bojxona nazoratidan yashirib; bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib; deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib olib o'tishda ifodalanadi.

MDHga a'zo bo'lgan va hozirda a'zo mamlakatlar JKlarida bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish uchun javobgarlik belgilangan normalar qiyosiy o'rganilganda, mazkur jinoyat obyektiv tomondan quyidagi harakatlar orqali sodir etiladi:

- predmetni bojxona nazoratini chetlab o'tib (Gruziyada aylanib o'tish orqali), bojxona chegarasidan o'tkazish (Ozarbayjon, Armaniston, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina davlatlarida);

- predmetni bojxona nazoratidan yashirib, bojxona chegarasidan o'tkazish (Ozarbayjon, Armaniston, Belarus Respublikasi, Gruziya, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina davlatlarida);

- predmetni bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, bojxona chegarasidan o'tkazish (Ozarbayjon, Armaniston, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston davlatlarida);

- predmetni deklaratsiyasiz yoki ishonchsiz (Belarus Respublikasida ishonchsiz ekanligi ayon bo'lgan) deklaratsiyadan foydalanib, bojxona chegarasidan o'tkazish (Ozarbayjon, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston davlatlarida);

- predmetni deklaratsiyaga yolg'on ma'lumotlarni kiritish orqali bojxona chegarasidan o'tkazish (Gruziyada);

- predmetni bojxona chegarasi orqali olib kirish qoidalarini buzib, bojxona chegarasidan o'tkazish (Gruziyada);

- predmetni bojxona chegarasi orqali olib chiqish qoidalarini buzib, bojxona chegarasidan o'tkazish (Gruziyada);

- predmetni yashirib o'tkazish uchun maxsus tayyorlangan yoki saqlash uchun moslashtirilgan yashirin yo'llar orqali bojxona chegarasidan o'tkazish (Moldovada);

- predmetni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazish (Ukrainada).

Bojxona chegarasidan olib o'tish tovarlar yoki transport vositalarini har qanday usulda, shu jumladan, xalqaro pochta jo'natmalarini yuborish, quvur transporti hamda elektr uzatish liniyalaridan foydalanish yo'li bilan bojxona hududiga olib kirish yoki olib chiqish harakatlarini amalga oshirishni anglatadi. Shunday harakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganda, shu jumladan, erkin bojxona zonalar va erkin omborlar hududidan olib kirilganda, bojxona chegarasidan amalda o'tish;

tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilganda, shu jumladan, erkin bojxona zonalar va erkin omborlar hududiga olib chiqilganda, bojxona deklaratsiyasini taqdim etish yoki tovar yoxud transport vositalarini olib chiqish maqsadini amalga oshirishga bevosita qaratilgan o'zga harakatni bajarish.

R. Kabulovning fikricha, tovarlarni olib o'tish (yoki boshqa tarzda ko'chirish) nazoratsiz yoki nazoratdan yashirib o'tish maxsus tayyorlangan narsa yashiradigan hamyonlar, joylarda bojxona chegarasidan boyliklarni yashirib olib o'tayotganda, shuningdek, ushbu maqsadlarda maxsus moslashgan idishlar yoki transport vositalaridagi pana joylar, bagajlar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, ikki qavat tagligi bo'lgan jomadon yoki konserva bankasidan foydalanish, kiyimda bo'shliq yoki narsa yashiradigan joylarni qoldirish va hokazolar)da namoyon bo'ladi [2, 232–233-b.].



Shuni e'tirof etish lozimki, bojxona nazorati deganda qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuyi tushuniladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish predmetini bojxona nazoratini chetlagan holda o'tkazish deganda bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish buyumlarining ularni o'tkazish uchun zarur bo'lgan tegishli hujjatlarning bojxona organi xodimlari tekshiruvsiz yoki bojxona idoralari belgilagan joylardan o'zga joydan, yo bo'lmasa bojxona nazoratini amalga oshirish vaqtidan boshqa vaqtda o'tkazilishi tushuniladi.

Bojxona nazoratidan yashirish deganda bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish buyumlarini xufiya joylardan va topishni qiyinlashtiradigan usullardan foydalanib yoki bir tusdagi ashyoga ikkinchisining ko'rinishini berib o'tkazishni tushunish lozim.

Maxsus saqlash joylari – bu xufiya joylar, shuningdek, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish maqsadlarida transport vositalariga oldindan qayta ishlanib, yig'ilib va shunga o'xshash yo'llar bilan jihozlangan hamda moslashtirilgan konstruktiv sig'imli idishlar va boshqa ashyolarni hisoblashdir.

Hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish deganda ashyolarni, tovar va boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasidan o'tkazish uchun asos tariqasida qalbaki hujjatlar, qonunga xilof yo'llar bilan olingan hujjatlar yoxud yolg'on ma'lumotlar yozilgan hujjatlarni bojxona nazoratiga taqdim etishni tushunish lozim. R.K. Kabulovning fikricha, bojxonanikiga o'xshash hujjatlar yoki vositalardan aldov yo'lida foydalanish aybdorning soxta hujjatlar taqdim etish yo'li bilan bojxona chegarasidan tovarlar yoki boshqa boyliklarni noqonuniy olib o'tishini bildiradi [2, 233-b.]. Aybdor faqat soxta hujjatlardan foydalanib qolmay, balki haqiqiy hujjatlarga ham olib o'tilayotgan yuk va hokazolarning miqdori, hajmi, bahosi to'g'risida tuzatish va qo'shimchalardan iborat o'zgarishlar kiritadi.

Bojxona identifikatsiya vositalari deganda so'rg'ichlash, muhrlash, raqamli, harfli va boshqacha tamg'alar, identifikatsiya belgilarini qo'yish, shtamplash, namuna va nusxalar olish, tovarlar, boshqa qimmatliklarni xatlash, chizmalar tuzish, miqyosni tasvirlash, fotosuratlar, rasmlar tayyorlash, tovarlar bilan birga yuboriladigan va boshqa hujjatlardan foydalanish va hokazolar tushuniladi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish predmetlarini deklaratsiyaga kiritmaslik yoki o'zgacha nom bilan deklaratsiyaga kiritish deganda shaxslarning chegaradan o'tkazilishi lozim bo'lgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish ashyolari yoxud tovar yoki boshqa qimmatliklarni deklaratsiya qilish tartibini buzishi bilan bog'liq harakatlari, ya'ni bojxona qonunlari tomonidan o'rnatilgan deklaratsiya qilish formasi va joyi, uni amalga oshirish tartibi, deklaratsiya va boshqa qo'shimcha hujjatlar taqdim etish muddatlari to'g'risidagi talablarga rioya etmaslik, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan yoki uning hududidan olib chiqilayotgan bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish ashyolari, tovar yoki boshqa qimmatliklarning turi, soni xususida deklaratsiyaga soxta ma'lumotlar kiritish tushuniladi. R.K. Kabulovning fikricha, bayon qilinmagan yoki o'zga nom bilan bayon qilingan tovarlar yoki boshqa boyliklarni ko'rsatish tovarlarni bojxona chegarasidan nomini ko'rsatib yoki o'zga nom bilan olib o'tishni taqozo etadi [2, 233-b.].

Tovarlar yoki boshqa predmetlar O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazilgan, ya'ni uning bojxona hududiga olib kirilgan yoki undan boshqa davlat hududi, erkin bojxona mintaqasi yoki erkin omborga olib chiqilgan vaqtdan boshlab bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishda jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd bosqichlari ham mavjud bo'lishi mumkin. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishga tayyorgarlik ko'rish tariqasida, masalan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar, giyohvandlik vositalari olib chiqishga litsenziyalarni, milliy qadriyatlarni olib chiqishga guvohnomalarni noqonuniy qo'lga kiritish borasidagi harakatlar; yashirin joylarni jihozlash; boshqa shaxslarni bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va ushbu jinoyatni sodir etish uchun sharoit yaratishga qaratilgan boshqa harakatlarni birgalikda sodir etishga og'dirishni ko'zdan kechirish kerak. Biroq shuni qayd etib o'tish lozimki, tayyorgarlik ko'rish harakatlari yashirin kechishi va ularni isbotlash qiyin bo'lgani sababli jinoiy ishlar ushbu bosqichda juda kam qo'zg'atiladi.

Sud amaliyoti tovar O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tgan damdan boshlab bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishni tamom bo'lgan jinoyat deb tan oladi.

Bu bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishni ham O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (import qilish) hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish (eksport qilish)da bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish predmetlari bojxona chegarasidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab tamom bo'lgan jinoyat deb topish imkonini beradi. Bunday o'tkazish tamom bo'lmagunga qadar qilmish, aniqlangan jinoyat qayerda to'xtatilganidan qat'i nazar, tegishli ravishda faqat bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishga tayyorgarlik ko'rish yoki uni sodir etishga suiqasd alomatlarigagina ega bo'ladi.

Yuqoridagi tahlildan shunday xulosaga kelish mumkinki, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishda jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgisi hisoblangan jinoyat sodir etish joyi, usuli, vaqti, quroli jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun zaruriy belgi sifatida e'tirof etilishi lozim.

Masalan, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining obyektiv tomoni fakultativ belgisi sifatida jinoyat sodir etish joyi O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga binoan, bojxona chegarasi deganda, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining sarhadlari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning tegralari tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustidagi havo bo'shlig'i bojxona hududini tashkil etadi.

Shuni qayd etish lozimki, jinoyat aynan bojxona chegarasi (jinoyat sodir etish joyi) orqali bojxona nazoratini chetlab yoki yashirib yoxud yuqorida qayd etilgan boshqa usullar orqali kontrabanda predmetini olib o'tishda ifodalanadi. Mazkur predmetlarni bojxona chegarasi hisoblanmagan boshqa joylarda olib yurish, albatta, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish sifatida kvalifikatsiya qilinmaydi.



O'zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin. Ularning hududlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi. Bojxona hududi sarhadlari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning tegralari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi hisoblanadi. Demak, shaxs harakatlarini jinoiy deb topishda jinoyat sodir etish joyi jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sanaladi.

Umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holatlar deb topilishi lozimligi haqidagi qoida mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak (JKning 56-moddasi 1-qismi "i" bandi), jinoyat sodir etish sharoiti bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati uchun javobgarlik masalasini belgilashda zaruriy ahamiyatga ega bo'lmaydi, balki jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holat sifatida qaralishi lozim [3, 15-b.]. Shuningdek, jinoyat vositasi ham jinoyatni kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi. Xususan, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatini sodir etilgan deb topish uchun shaxs tomonidan bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjat va vositalardan aldash yo'li bilan foydalanilgan yoxud deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanilgan bo'lishi zarur.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan shaxsga bojxona chegarasi orqali ma'lum bir tovar va ashyolarni qonuniy asosda olib o'tish huquqini beradigan hujjatlar sirasiga belgilangan tartibda to'ldirilgan bojxona deklaratsiyasi, muayyan tovarlarni olib o'tishga ruxsat etadigan tashkilot va muassasalar tomonidan berilgan hujjatlar, masalan, valyuta sotib olib, uni olib o'tish haqida bank tomonidan berilgan ma'lumotnoma kiradi. Bunday hujjatlardan aldov yo'li bilan foydalanish deganda, haqiqiy ish blankalariga o'chirish yoki to'g'rilash yo'li bilan yolg'on ma'lumotlar kiritib, ularni soxtalashtirish; muddati o'tib ketgan hujjatlarga boshqa tovar va ashyolarga taalluqli tavsif va ma'lumotlar kiritish tushuniladi [3, 15-b.].

Bundan tashqari, jinoyatni sodir etish usuli ham jinoiy javobgarlikni belgilashda zaruriy ahamiyatga ega. Ya'ni bojxona nazoratini chetlab, bojxona nazoratidan yashirib, bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjat va vositalardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyani qo'llab, jinoyat predmetining chegaradan olib o'tilishi jinoyatni sodir etish usuli deb belgilanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Mazkur tadqiqotda qayd etilgan tahlillardan kelib chiqqan holda iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarning turi sifatida bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning obyektiv belgilari tahlili yuzasidan quyidagi natijalarga e'tibor qaratish mumkin:

1. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish obyekti bo'yicha quyidagilar bildiriladi:

maxsus obyekt – iqtisodiyot sohasi xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar;

turdosh obyekt – iqtisodiyot asoslariga rioya qilish tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar;

bevosita asosiy obyekt – erkin fuqarolik muomalasidagi tovarlar

va boshqa predmetlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish tartibi va shartlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar;

bevosita qo'shimcha obyekt – bojxona organlarining normal faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

2. JKning 246-moddasida nazarda tutilgan predmetlardan tashqari barcha predmetlarni 182-modda dispozitsiyasida belgilangan usullar orqali davlat chegarasidan o'tkazish bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish deb qaralishi zarur.

3. Quyidagi predmetlarni ham *JKning 182-moddasi qamrovi doirasidan chiqarish*, ular uchun javobgarlikni og'irlashtirish hamda JKning 246-moddasi qamrovidagi predmetlar doirasiga kiritish tavsiya etiladi:

xavfli chiqindilar;

davlat va jamiyat tuzumini qo'porish, hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik va davlat suverenitetini buzishga yo'naltirilgan, urush, terrorizm, zo'ravonlik, milliy ustunlik va diniy nafratni, irqchilik va uning turlari (antisemitizm, fashizm)ni targ'ib qiluvchi predmetlar, shuningdek, pornografiya mazmunidagi materiallar.

Xulosalar

Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar turi sifatida bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzishning obyektiv belgilarini tushunish va to'g'ri talqin qilish orqali mazkur sohadagi jinoyatlarning oldini olish hamda bartaraf etish, sud-tergov amaliyotida huquqni qo'llash faoliyati yagonaligini ta'minlash, qilmishlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, shuningdek, qonunchilik normalarining turlicha sharhlanishiga yo'l qo'ymaslik hamda iqtisodiyot va bojxona sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarining jinoyat-huquqiy ahamiyatini yanada teranroq anglashga erishiladi.

REFERENCES

1. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2005, p. 154.
2. G'ulomov Z.X., Zufarov R.A., Kabulov R.K., Qodirov M.M. et al. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Commentaries on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 1997, p. 307.
3. Zokirova O.G'. Kontrabanda uchun jinoiy javobgarlik: O'zbekistonga yordam bermang [Criminal responsibility for smuggling: do not help Uzbekistan]. Responsible ed. M.Kh. Rustambayev. Tashkent, TSIL, 2007, p. 12.



4. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Special part. Tashkent, Legal literature publishing house, 2021, vol. 2, pp. 525–526.
5. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. Special part. Ed. V.V. Zdravomyslova. Moscow, 1996, p. 131.
6. Ugolovnoye pravo Rossii [Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. Special part. Ed. A.I. Raroga. Moscow, 1997, p. 111.
7. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. General and Special Parts. Eds. N.I. Vetrova, Yu.I. Lyapunov. Moscow, 2001, pp. 388–389.
8. Chuchayev A.I., Ivanova S.Yu. Tamozhennyie prestupleniya v novom TK RF [Customs crimes in the new Customs Code of the Russian Federation]. *State and Law*, 1998, no. 11, p. 43.
9. Rossiyskoye ugolovnoye pravo [Russian criminal law]. Special part. Eds. M.P. Zhuravleva, S.I. Nikulin. Moscow, 2001, p. 187.
10. Tamozhennoye pravo [Customs Law]. Ed. V.N. Gavrikidze. Moscow, 1995, p. 192.
11. Aripov D.U. O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar"gi qonuniga sharh [Commentary on the Law of the Republic of Uzbekistan on "Waste"]. Tashkent, TSIL, 2007, p. 3.
12. Lopashenko N. Ekologicheskiye prestupleniya: nauchno-prakticheskiy kommentariy [Ecological crimes: scientific and practical commentary]. St. Petersburg, Legal Center Press, 2002, p. 64.
13. Kabulov R., Atajonov A. et al. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Special part. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2014, 824 p.
14. Ermashev J.M. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish tushunchasi va ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilik hujjatlarining rivojlanishi [The concept of violation of customs legislation and the development of legislation providing for criminal liability for this act]. *Journal of Law Research*, 2023, vol. 8, iss. 2, pp. 53–63. DOI: 10.5281/zenodo.7659374
15. Yermashev Zh.M. Voprosy pravovogo obespecheniya deyatel'nosti khakimov v Respublike Karakalpakstan i sovershenstvovaniya ikh funktsiy [Issues of legal support for the activities of khakims in the Republic of Karakalpakstan and improvement of their functions]. *Bulletin of Science and Practice*, 2020, vol. 6, no. 9, pp. 324–329. DOI: 10.33619/2414-2948/58

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.1./YEKR8544>
UDC: 343.1(045)(575.1)

JINOYAT HUQUQI PRINSIPLARI: QONUNCHILIK VA HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA TATBIQ ETISH MASALALARI

Toshpulatov Akrom Ikromovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0002-3029-2767
e-mail: a.toshpulatov4@gmail.com

Annotatsiya. Jinoyat qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Alohida turdagi jinoyatlarni sodir etganlik uchun sanksiyalar qilmishlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga nomuvofiqligi, jumladan, jazoning muqobil turlari, rag'batlantiruvchi normalar va jamoat ta'sir choralari yetarli darajada qo'llanmasligi va samarasizligi bu borada ilmiy izlanishlar olib borishning dolzarbligini belgilaydi. Maqolada Jinoyat kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarning jinoyat huquqi prinsiplariga qanchalik mosligi masalasi tadqiq qilingan. Shuningdek, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalari tahlili asosida ayrim jinoyatlar uchun qonunda belgilangan jazolar ularning ijtimoiy xavfliligiga mos emasligi ko'rsatib berilgan. Muallif insonparvarlik va odillik prinsiplarini jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan faqat yengilroq jazo qo'llash uchun asos sifatida baholamaslik kerakligini ta'kidlagan. Maqolada jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlashni sud hujjatlarini ijro etmaslik jinoyatidan farqlash, jinoiy jazo tayinlashda teng huquqlilik prinsipiga rioya etish, jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirishga oid takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: qonun, jinoyat, prinsip, qonuniylik, insonparvarlik, odillik, javobgarlik, jazo.

ПРИНЦИПЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ: ВОПРОСЫ РЕАЛИЗАЦИИ В ЗАКОНОТВОРЧЕСКОЙ И ПРАВОПРИМЕНИТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ

Тошпулатов Акром Икромович,
кандидат юридических наук, самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета



Аннотация. Создание эффективной системы уголовного права является одной из приоритетных задач государства по обеспечению законности и правопорядка, прав и свобод человека, интересов общества и государства, мира и безопасности. Несоответствие санкций за совершение отдельных видов преступлений характеру и степени общественной опасности деяний, в том числе альтернативных видов наказания, недостаточное использование и неэффективность поощрительных норм и мер общественного воздействия определяют актуальность проведения научных исследований в этой области. В статье анализируется соответствие изменений и дополнений в Уголовный кодекс с принципами уголовного права. Также на основе анализа норм Особенной части Уголовного кодекса Республики Узбекистан обосновано, что предусмотренные законом наказания за некоторые преступления не соответствуют их общественной опасности. Автор подчеркивает, что принципы гуманности и справедливости не должны расцениваться только как основание для применения к виновным более мягкого наказания. В статье представлены предложения по разграничению уклонения исполнения от уголовного наказания от преступления неисполнения судебных актов, соблюдению принципа равноправия при назначении уголовного наказания, совершенствованию системы уголовной ответственности и наказаний.

Ключевые слова: закон, преступление, принцип, законность, гуманность, справедливость, ответственность, наказание.

PRINCIPLES OF CRIMINAL LIABILITY: IMPLEMENTATION ISSUES IN LEGISLATIVE AND LAW ENFORCEMENT PRACTICE

Toshpulatov Akrom Ikromovich,
Independent Researcher,
Tashkent State University of Law,
Candidate of Legal Sciences

Abstract. The creation of an effective system of criminal law is one of the priority tasks of the state to ensure law and order, human rights and freedoms, the interests of society and the state, peace and security. The discrepancy between sanctions for committing certain types of crimes and the nature and degree of public danger of acts, including alternative types of punishment, insufficient use and inefficiency of incentive norms and measures of social influence determine the relevance of scientific research in this area. The article analyzes the correspondence of changes and additions to the Criminal Code with the principles of criminal law. Also, based on the analysis of the norms of the Special Part of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, it is substantiated that the penalties provided by law for certain crimes do not correspond to their public danger. The author emphasizes that the principles of humanity and justice should not be regarded as a basis for applying only milder punishment to the guilty. The article presents proposals for distinguishing between the evasion of execution from

criminal punishment from the crime of non-execution of judicial acts, the observance of the principle of equality in the imposition of criminal punishment, and the improvement of the system of criminal liability and punishment.

Keywords: law, crime, principle, legality, humanity, justice, responsibility, punishment.

Kirish

Jinoyat huquqining Jinoyat kodeksi 3–10-moddalarida mustahkamlangan prinsiplari nafaqat qonun ijodkorligi, balki huquqni qo'llash amaliyotida ham bir xil ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasidagi vazifalarni amalga oshirish uchun javobgarlikning asoslari va prinsiplari, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanini aniqlash, ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari belgilanishi ko'rsatilgan.

Shunday ekan, rahbariy, yo'naltiruvchi g'oyalar sifatida qanday qilmishlar jinoyat hisoblanishi va ular uchun jazo belgilashda jinoyat huquqi prinsiplari talablariga rioya etilyaptimi?

Sud-tergov amaliyoti hamda JK normalari tahlili jinoyat huquqi prinsiplari talablariga har doim ham amal qilinmayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, qilmishlarni ijtimoiy xavfli deb hisoblash va ularni jinoyat qonunchiligiga kiritish, jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jazo tayinlashda qonuniylik, tenglik, odillik, insonparvarlik va ayb uchun javobgarlik prinsiplariga mosligi bo'yicha bahsli holatlar mavjud bo'lib, ushbu maqolada bir qancha misollar asosida mazkur masalaga e'tibor qaratishga harakat qilingan.

Tadqiqot obyektni sud-tergov amaliyoti va amaldagi JK normalarida prinsiplarning qo'llanishiga oid ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Material va metodlar

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi, sud amaliyoti materiallari tahlili, amaliyot xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, soha olimlarining mazkur masala yuzasidan ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy-huquqiy, empirik tadqiqot, statistik ma'lumotlar tahlili, so'rov o'tkazish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

JK Maxsus qismi normalari hamda sud amaliyoti tahlili jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga qarab jazo belgilash, JKga ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik belgilaydigan yangi normalarni kiritish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, jazodan ozod qilishda JK prinsiplariga moslikni ta'minlashda ayrim nomuvofiqliklar borligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, ma'lum bir jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashga oid Oliy sud Plenumi qarorlari tushuntirishlarining maqomi masalasi ham o'z yechimini topmagan bo'lib, ushbu tushuntirishlar ba'zan amaldagi jinoyat



qonunchiligi normalariga muvofiq kelmaslik holatlari ham mavjud. Bu, ayniqsa, qonuniylik prinsipi tahlilida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qonuniylik prinsipiga muvofiq, hech kim sudning hukmi bo'lmay turib, jinoyat sodir etishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas.

Ushbu qoida har qanday jinoiy jazoga tortiladigan qilmish sud hukmi bilan aybli deb topilishi va unga sud hukmi bilan jazo belgilanishini nazarda tutadi.

JKda shaxsning sud tomonidan belgilangan jazoni o'tashdan bo'yin tovlagani uchun unga sudning ajrimi bilan og'irroq jazo berilishi (sud hukmi bilan belgilangan jazo o'rniga og'irroq jazo bilan almashtirilishi) qonuniylik prinsipiga qanchalik mos keladi?

Jinoyat huquqidagi qonuniylik prinsipining asosiy yo'nalishi shaxsning asossiz jinoiy javobgarlikka tortilishidan muhofaza qilish hisoblanadi [1].

Qonuniylik prinsipining eng muhim ahamiyati inson huquqlarini himoya qilish va qilmishlarni o'zboshimchalik bilan kvalifikatsiya qilishning oldini olishda namoyon bo'ladi [2].

Qonuniylik prinsipi qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligiga oid qoidalarining qat'iy tartibga solinganligi hamda qonun normalarining qat'iy talqin qilinishini talab qiladi.

JKning 42-moddasida jazo tushunchasi belgilangan bo'lib, u jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan hamda mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir. Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llanadi.

JKning 44-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, agar shaxs jarima jazosini o'tashdan bo'yin tovlasa, ushbu jarima jazosi og'irroq jazo choralari bo'lgan majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan almashtirilishi mumkin.

Shuningdek, JKning 45¹-moddasi beshinchi qismida mahkum majburiy jamoat ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, ushbu jazo ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan, 46-moddasining to'rtinchi qismida mahkum axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlaganda, ushbu jazo ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan, 481-moddasi oltinchi qismida mahkum ozodlikni cheklash jazosini o'tashdan bo'yin tovlasa, u boshqa turdagi jazo bilan almashtirilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Aynan shunday qoidalar voyaga yetmaganlarga nisbatan ham qo'llanishi mumkinligi JKning 82-, 82¹-, 83- va 84¹-moddalarida ham nazarda tutilgan.

Shaxs sud hukmi bilan tayinlangan ma'lum bir jazoni o'tashdan bo'yin tovlashi natijasida ushbu jazo chorasini boshqa og'irroq jazo chorasiga almashtirish sud hukmi bilan emas, balki ajrimi bilan amalga oshiriladi. Jumladan, JPKning 539-moddasiga muvofiq, jarima solish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklashni boshqa jazo turi bilan almashtirish Jinoyat kodeksining 44-, 451-, 46-, 481-, 82-, 821-, 83- va 841-moddalariga muvofiq, sudya tomonidan jazoni ijro

etuvchi organlarning taqdimnomasiga ko'ra yoki jamoat birlashmasi yoxud mehnat jamoasining iltimosnomasi bo'yicha amalga oshiriladi. Bu haqda sud ajrimi qabul qilinadi.

Shu o'rinda biron-bir jinoyat uchun belgilangan jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun uni boshqa og'irroq jazo chorasi bilan almashtirish va bu almashtirishni sud ajrimi orqali qo'llash qonuniylik prinsipi hamda JKning 42-moddasida nazarda tutilgan jazo ta'rifiga to'g'ri keladimi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Masalaning chigalligi shundaki, JKning 232-moddasida sud hujjatini ijro etmaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlashni ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin davom ettirish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

B. Yusupovning ta'kidlashicha, "sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tovlash deganda jismoniy yoki mansabdor shaxsning qonunda belgilangan muddatlarda sud hukmi, hal qiluv qarori yoki boshqa sud hujjatini ijro etish yoki ularni amalga tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rmasligi tushuniladi" [2].

F. Tohirov sud hujjatini ijro etmaganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasida xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tahlil qilgan. U Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Armaniston, Rossiya, Polsha, Ispaniya davlatlari Jinoyat kodekslarida sud hujjatini ijro etmaganlik uchun jinoiy javobgarlik masalalarini tahlil qilish asosida JKning 232-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etishni taklif qilgan: "Muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida bajarishdan bo'yin tovlash, shuningdek, sud hujjatining ijro etilishiga to'sqinlik qilish" [3].

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ushbu masalaga yechim topishga harakat qilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi "Sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tovlash va ularning ijro etilishiga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 1-bandining to'rtinchi xatboshisida Jinoyat kodeksining 232-moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan sud hujjati deganda, qonuniy kuchga kirgan sud buyrug'i, ajrim, qaror, hal qiluv qarori, hukm tushunilishi lozimligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-bandiga muvofiq, Oliy sud jinoiy javobgarlik nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan sud hujjati, ya'ni muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi hujjatni bajarishdan bo'yin tovlaganlik uchun vujudga keladi. Mulkiy xususiyatga ega bo'lgan sud hujjati, ya'ni pul mablag'lari yoki mol-mulkni undirish to'g'risidagi hujjatni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi [4], deb tushuntirish bergan.

Shu bilan birga, jinoyat qonunida istisnolar ham nazarda tutilgan, ya'ni nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlaganlik jinoiy javobgarlikni emas, balki boshqa oqibatlarini keltirib chiqaradi. Jumladan, axloq tuzatish ishlaridan bo'yin tovlagan mahkumning javobgarligi uni jinoiy javobgarlikka tortish yo'li bilan emas, balki axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini



ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish orqali ta'minlanadi (JKning 46-moddasi to'rtinchi qismi).

JKning 232-moddasi dispozitsiyasi mazmuniga ko'ra, sud hujjatining ijro etilishiga to'sqinlik qilganlik uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun sud hujjatining xususiyati ahamiyat kasb etmaydi. Shu bois sud hujjati ijro etilishiga to'sqinlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik sud hujjatining mulkiy yoki nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan-bo'lmaganligidan qat'i nazar, yuzaga keladi.

Ko'rinib turibdiki, Oliy sud Plenumi qarorida JK normalarini sharhlashda biroz chetga chiqib ketilgan. JKda sud hujjatini ijro etmaslik mulkiy xususiyatga ega bo'lgan yoki mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan qilmishlarga nisbatan qo'llanishi haqida hech qanday ko'rsatma mavjud emas. Ushbu holat qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi faqat JK bilan belgilanishi haqidagi qonuniylik prinsipiga zid hisoblanadi.

Y.Y. Cherednichenko Rossiya JKdan jarima, axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun (qonun bu qilmishlarni jinoyat deb topmagan) ushbu jazo chorasini og'irroq jazo bilan almashtirish qonuniylik prinsipi mazmuniga zid deb, jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun og'irroq jazo chorasi bilan almashtirishga oid normalarni JKdan chiqarib tashlash hamda RF JKning 315-moddasi tahririni kengaytirib, jazoni o'tashdan bo'yin tovlash holatlarini sud hujjatlarini ijro etmaslik sifatida kvalifikatsiya qilishni taklif qilgan.

Albatta, bu fikr bahsli hisoblanadi, shu bilan birgalikda, unda e'tibor qaratish, muhokama qilib ko'rish kerak bo'lgan holatlar mavjud:

birinchidan, jarima yoki axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlashning JK sud hujjatini ijro etmaganlik uchun jinoiy javobgarlik (JK 232-m.) belgilangan qilmishlardan qanday farqi mavjud?

ikkinchidan, JKning 42-moddasida jinoiy jazo faqat sud hukmi bilan tayinlanishi belgilangan bo'lib, jazoni og'irrog'i bilan almashtirish esa sud ajrimi bilan amalga oshirilishi asoslimi?

uchinchidan, jarima yoki axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, ozodlikni cheklash jazolarini o'tashdan bo'yin tovlash alohida jinoyat tarkibi hisoblanmasa, unda shu holatlar uchun og'irroq jazo belgilash hech kim aynan bitta jinoyati uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emasligini belgilaydigan odillik prinsipiga zid bo'lib qolmaydimi?

to'rtinchidan, sud tomonidan belgilangan jazodan bo'yin tovlagani uchun mahkumga og'irroq jazo chorasi belgilansa va mahkum og'irroq jazo chorasini ijro etishdan ham bo'yin tovlasa, unda mahkumga yanada og'irroq jazo chorasini qo'llash kerak bo'ladi. Bu esa sud hujjatlari ijro etilishini ta'minlashga oid munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, Y.Y. Cherednichenkoning yuqorida ko'rsatib o'tilgan taklifi jinoyat qonunchiligi konsepsiyasi jiddiy o'zgartirilishi, amalda o'rnatilgan va qo'llab kelinayotgan tartiblarning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin hamda uning oqibatlarini ham oldindan aniqlash juda qiyin. Shu bilan birgalikda, mazkur masala nazariy jihatdan tadqiq qilinishi zarur deb hisoblaymiz.

JKning yangi tahriri loyihasida bunday savollarga javob berilishi kerak. Fikrimizcha, sud hukmi bilan tayinlangan jazolarni ijro etmaslik oqibatida ularni og'irroq jazo turi bilan almashtirish hamda sud hujjatlarini ijro etmaganlik uchun javobgarlik belgilangan norma o'rtasidagi farq aniq belgilanishi, sud hujjatlarini bajarmaganlik bo'yicha Oliy sud tomonidan berilgan tushuntirish qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Sud amaliyotida jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlik og'irroq jazo chorasini bilan almashtirilgan hollarda, bunday og'irroq jazo chorasini ham ijro etishdan bo'yin tovlash holatlari uchrab turadi.

Masalan, Jinoyat ishlari bo'yicha Bandixon tuman sudida tuman IIB tomonidan mahkum A.A.T.ga nisbatan jazo turini almashtirish haqidagi taqdimnoma ko'rib chiqilgan. Ish hujjatlariga ko'ra, A.A.T.ga 2022-yil 11-maydagi hukmga ko'ra, JK 229¹-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilganligi uchun BHMning 35 baravari miqdorida jarima jazosi tayinlangan. 2022-yil 14-sentabrda jarima jazosining o'talmay qolgan qismi JKning 44-moddasiga asosan, 87 soat majburiy jamoat ishlariga almashtirilgan. Ammo mahkum A.A.T. majburiy jamoat ishlarini ham bajarishdan bo'yin tovlagani uchun 2022-yil 29-noyabrdagi sud ajrimi bilan tuman IIBning taqdimnomasi qanoatlantirilib, mahkum A.A.T.ga nisbatan Bandixon tuman sudining 2022-yil 14-sentabrdagi ajrimi bilan tayinlangan 87 soat majburiy jamoat ishlari jazosi 21 (yigirma bir) kun muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan [5].

Natijada o'n million besh yuz ming so'm jarima to'lashi kerak bo'lgan mahkum 21 kun ozodlikdan mahrum qilish (ma'muriy qamoq desa ham bo'ladi) bilan jazoni o'tab ketmoqda. Bunda JKning 50-moddasida ozodlikdan mahrum qilish jazosining eng kam muddati bir oy qilib belgilanganligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Jinoiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun uni og'irroq jazo turi bilan almashtirish bilan bog'liq yana bir qancha muammolar mavjud. JKga ozodlikni cheklash jazosi belgilangan 481-modda 2015-yilda kiritilgan. Ushbu jazo o'z mazmuniga ko'ra, shaxsga biron-bir moddiy, mulkiy oqibat keltirib chiqarmaydi, u faqat mahkumning yashash joyini tark etishni butunlay yoki sutkaning muayyan vaqtida taqiqlashdan iborat bo'lgan jazo chorasini hisoblanadi.

M.M. Haydarovning ta'kidlashicha, "dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlari jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining hozirgi tendensiyalaridan biri mahkumni jamiyatdan ajratib qo'yish bilan bog'liq bo'lmagan jazolardan keng foydalanishdir. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi uchun ozodlikni cheklash jazosi nisbatan yangi hisoblanadi, chunki u milliy jinoyat qonunchiligida 2015-yilda paydo bo'lgan" [6].

Ushbu jazoning xususiyatiga to'xtalmasdan JKdagi jazolar o'talmaganida, uni og'irroq jazo bilan almashtirish qoidalari qonuniylik, odillik va insonparvarlik prinsiplariga qanchalik mos kelishi bilan bog'liq yana bir qancha savollar yuzaga keladi.

JKning 44-moddasiga ko'ra, jarima jazosini o'tashdan bo'yin tovlanganda, u og'irroq jazo chorasini bo'lgan ozodlikni cheklash jazosi bilan almashtirilishi mumkin. Jarima jazosi BHMning 5 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda belgilanadi. 2022-yil



noyabr oyida BHM 300 000 so'mga teng ekanligidan kelib chiqilsa, jinoiy jazo sifatida jarima 1 mln besh yuz ming so'mdan 180 mln so'mgacha miqdorni tashkil qiladi va bu shaxsning moddiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Agar mahkum jarima jazosini to'lashdan bo'yin tovlasa, sud ushbu jazo turini uch yildan oshmagan muddatga ozodlikni cheklash jazosiga almashtirishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ozodlikni cheklash shaxsning moddiy ahvoliga ta'sir ko'rsatmaydi. U ishlayotgan bo'lsa, ishini davom ettirib, oylik ish haqi olaveradi, faqat sud tomonidan belgilangan ma'lum bir harakat erkinligi cheklanishi mumkin. Ya'ni shaxs uchun jarima jazosini ijro qilishdan bo'yin tovlash uning uchun og'irroq oqibat emas, balki yengilroq oqibat keltirib chiqaradi. Bu qilmishning jazoga sazovorligini belgilaydigan qonuniylik, jinoyat sodir etgan shaxsning axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur va yetarli jazo tayinlashda ifodalanadigan insonparvarlik, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi jinoyatning og'ir-yengilligi, ayb va shaxsning ijtimoiy xavfliligiga muvofiqligida ifodalanadigan odillik prinsipining mohiyatiga zid hisoblanadi.

Xuddi shunday holat jarima jazosini o'tashdan bo'yin tovlanganda, uni axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtirishda ham namoyon bo'ladi. Ayrim holatlarda jarima jazosi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, agar mahkum ishsiz bo'lsa, uni ishga joylashtirish kerak bo'ladi va u jazoni o'tash bilan birgalikda ish bilan ta'minlanib, oylik ish haqi ham olib turadi. Bu jazoni o'tamaganlik uchun og'irroq jazo emas, balki jazoni o'tashdan bo'yin tovlashni rag'batlantirish hisoblanadi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish bilan bog'liq holatlarda ham mantiqsizlik bor. JKning 74-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi. JKning 46-moddasiga muvofiq, axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin.

T.X. Altmishev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Probatsiya xizmatining axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazosini ijro etish faoliyatidagi navbatdagi muammo qonunchilikdagi bo'shliq va nomuvofiqliklar sifatida axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan tartibda yengilroq yoki og'irroq jazoga almashtirishdagi muddatlarda ko'rinadi. Biroq ushbu masaladagi muammoning mohiyati sudlar tomonidan JKning 74-moddasi tartibida ozodlikdan mahrum etilgan yoki ozodligi cheklangan shaxslarga nisbatan sud jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo sifatida axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtirishida namoyon bo'ladi. Chunki JKning 74-moddasi to'rtinchi qismi talablariga ko'ra: "Ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi".

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 74-moddasi uchinchi qismi "v" bandiga ko'ra: "o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llangan va jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo

muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanishi mumkin". Ushbu moddaning tahlilidan ko'rinib turibdiki, o'ta og'ir jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llangan ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosi sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin yengilroq jazo sifatida axloq tuzatish ishlariga almashtirilganda, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan muddati qancha bo'lishidan qat'i nazar, shu muddatdagi axloq tuzatish ishlariga almashtiriladi. Bunda axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning eng ko'p muddati sifatida uch yil belgilanganligi inobatga olinmay qoladi" [7].

Ushbu holat bo'yicha sud amaliyotini tahlil qilamiz.

2022-yil 2-dekabrda jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudida tuman IIB taqdimnomasiga binoan, axloq tuzatish ishlari jazosini ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirish bo'yicha ish ko'rib chiqilgan. Ish hujjatlariga muvofiq, mahkum A.A. muqaddam JKning bir nechta moddalari bilan ayblanib, 2014-yil 7-iyuldagi hukmga binoan, unga 9 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. 2016-yil 13-maydagi ajrim bilan o'talmay qolgan 4 yil 27 kun axloq tuzatish ishlariga almashtirilgan. Tuman sudining 2017-yil 17-maydagi ajrimi bilan unga JK 73-moddasi qo'llanib, 1 yil 10 oy 7 kun axloq tuzatish ishlari jazosidan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan. Tuman sudi tomonidan 2019-yil 25-sentabrda 8 yil 6 oyga ozodlikdan mahrum qilingan. Tuman sudining 2022-yil 19-yanvardagi ajrimi bilan JKning 74-moddasi uchinchi qismi "b" bandiga asosan, o'talmay qolgan 5 yil 7 oy 26 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi shu muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtirilgan. Mahkum ushbu axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan bo'yin tovlaganligi uchun o'talmay qolgan 5 yil 7 oy 26 kun muddatdagi axloq tuzatish ishlari shuncha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan [8].

Bu yerda JKning 46-moddasi ikkinchi qismida belgilangan axloq tuzatish ishlari jazosining belgilangan muddatiga zid holat mavjud. Fikrimizcha, ushbu bahsli holatni hal qilish uchun JKning 46-moddasi ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi:

"Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan hollarda jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazoga almashtirilganda, axloq tuzatish ishlari o'talmay qolgan jazo muddatiga tayinlanadi".

Bundan tashqari, keyingi vaqtlarda JKga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ham qonuniylik prinsipi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish zarur. Ba'zi hollarda qonun chiqaruvchi qonun bilan qo'riqlanadigan obyektlarni belgilashda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda bir tomonlamalikka, huquqni qo'llovchi organlarning ma'lum bir pozitsiyani bo'rttirib ko'rsatishlariga yon berishiga yo'l qo'yilayotgandek tuyiladi. Fikrimizcha, ushbu holat JKga 2019-yil 2-maydagi Qonun bilan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan 244⁴-moddaning kiritilishi hamda shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan 2601-moddaga kiritilgan



o'zgartirishlar, shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun javobgarlik belgilangan 116²-moddasiga kiritilgan o'zgarishlarda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining samoviy hududidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan JKning 260¹-moddasi mazmuniga ko'ra, respublikaning samoviy hududida samolyot yoki vertolyot kabi katta transport vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalanish uchun javobgarlik xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin yuzaga keladi. Holatdagi paradoks (qarama-qarshilik) shundaki, agar samoviy hududdan samolyot yoki vertolyot kabi transport vositalaridan bir necha yuz yoki ming marta kichik, narxi o'rtasida ham juda katta tafovut borligi, oddiy yo'l sumkasi ichida ham olib yurish mumkin bo'lgan uchuvchisiz uchadigan apparatlar (dron)dan qonunga xilof foydalanish birdan JKning 244⁴-moddasi bilan jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi. Boshqacha aytganda, samolyot bilan havo hududidan birinchi marta qonunga xilof ravishda foydalanish MJTK 116²-moddasi bilan bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan yuz baravarigacha jarima yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday qilmish birinchi marta uchuvchisiz uchadigan apparatlar bilan sodir etilsa, JKning 244⁴-moddasi birinchi qismi bilan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bundan tashqari, JKning 244⁴-moddasi mazmuniga ko'ra, uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish ham jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Masalan, kichik hajmdagi, biron-bir marosimni tasvirga olishga mo'ljallangan dronning parragini olib kirish ham jinoiy qilmish hisoblanadi. Yana bir paradoks shundaki, shaxs agar o'qotar qurolning asosiy bo'lgan qismlari bilan bog'liq g'ayriqonuniy harakatlar sodir qilsa, jinoiy javobgarlik kelib chiqadi, ammo o'qotar qurolning asosiy qismi bo'lmasa, jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi. Marosimlarni tasvirga olishga mo'ljallangan dronlarning har qanday butlovchi yoki ehtiyot qismi bilan bog'liq g'ayriqonuniy harakatlar esa jinoyat deb topiladi.

Yuqoridagi misolda keltirilgan holatlar tabiiy ravishda bir qator savollarni keltirib chiqaradi. Sodir etilgan qilmishning jinoiyligi qonuniylik prinsipiga muvofiq, Jinoyat kodeksi bilan belgilanar ekan, unda qilmishlarning ijtimoiy xavfliligini jinoyat darajasida baholashda qanday mezonlarga tayanilgan; qonun chiqaruvchi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanishi kerak bo'lgan obyektlarning muhimligi darajasini o'lchashda qanday mezonlarga tayanigan?

Jinoiy jazolarni qonunda belgilashda fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi normalariga rioya etilishi masalasiga ham e'tibor qaratish kerak. JKning 46-moddasidagi axloq tuzatish ishlari va 47-moddasida xizmat bo'yicha cheklash jazolari deyarli bir xil jazo hisoblanib, farqi faqat kimga nisbatan qo'llanishida bo'lib qolgan. Axloq tuzatish ishlarida ham, xizmat bo'yicha cheklashda ham ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish

belgilangan. Avvalo, axloq tuzatish ishlari jazosi nomlanishiga e'tibor qaratsak. JKning 46-moddasi mazmuniga muvofiq, ushbu jazo turida mahkumning axloqan tuzalishiga oid talablar mavjud emas, faqat ish haqidan ma'lum bir qismi belgilangan muddat davomida davlat daromadi uchun ushlab qolinadi. Asl mohiyatini olganda, ushbu jazo mahkum oylik ish haqidan ushlab qolish bo'lganligi uchun uni ish haqidan ushlab qolish yoki oylik daromadidan ushlab qolish deb nomlash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xizmat bo'yicha cheklash ham mohiyatan harbiy xizmatchining pul ta'minotining ma'lum bir qismini ushlab qolishda ifodalanadigan jazo turi hisoblanadi. To'g'ri, JKning 47-moddasiga muvofiq, xizmat bo'yicha cheklashda harbiy xizmatchi pul ta'minotidan ushlab qolish bilan birgalikda uni muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilish ham nazarda tutilgan. Ammo tenglik prinsipi nuqtayi nazaridan deyarli bir xil bo'lgan jazoni shaxsning kasbiga qarab, ikkita alohida jazo turi sifatida belgilash to'g'ri emas. Fikrimizcha, ushbu ikki jazo turi birlashtirilishi, harbiy xizmatchilar tomonidan ushbu jazoni o'tash shartlariga oid alohida qoidalar ushbu moddaning alohida qismi sifatida bayon qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

JKning 8-moddasi mazmuniga ko'ra, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odil bo'lishi, jinoyatning og'ir-yengilligi va shaxsning aybi hamda shaxsning ijtimoiy xavfliligiga mos bo'lishi kerak. Xo'sh, ushbu prinsipga har doim ham qonun normalarini shakllantirishda rioya qilinmoqdami?

R. Kabulov, JK Maxsus qismi normalari har doim ham qilmishning ijtimoiy xavfliligiga mos emasligi to'g'risida quyidagilarni bildirgan: "Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoxud takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan odam savdosi JKning 135-moddasi ikkinchi qismining tegishli bndlari bilan kvalifikatsiya qilinib, ushbu qism sanksiyasida besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Ayni vaqtda bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib odam o'g'irlash uchun javobgarlik belgilangan JKning 137-moddasi ikkinchi qismida besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Bundan odam savdosi maqsadida odam o'g'irlaganlik uchun uchun javobgarlik bunday qilmishning faqat odam o'g'irlaganlikka nisbatan ijtimoiy xavfliligini hisobga olmagan holda belgilangan, degan xulosa kelib chiqadi. Bunday muammo JKning 135-moddasi uchinchi qismi va 137-moddaning uchinchi qismini taqqoslaganda, yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi [9]".

R. Kabulovning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda keyingi yillarda JKga kiritilayotgan o'zgartirishlar ilmiy asosga tayanilmay ishlab chiqilayotganligi, jinoyat va uni sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi yetarli darajada hisobga olinmaganligini ta'kidlash joiz. Masalan, viloyatda yashovchi ayol oilasidagilar bilan kelishmovchilik sababli boshqa viloyatga ketib qolgan. Uning qayerda yashayotganligini aniqlagan eri va qaynotasi ayol vaqtincha yashayotgan joyga kelib, uni erkiga zid ravishda majburlab, mashinaga o'tqazib, uyiga olib ketishgan. Ushbu holatga baho bergan ichki ishlar idoralari holat bo'yicha odam o'g'irlash jinoyati bo'yicha JKning 135-moddasiga asosan, jinoyat ishi qo'zg'atilganligini bildirishgan.



Mazkur holatni tahlil qilganimizda, ayolning eri va qaynotasining qilmishi bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib odam o'g'irlaganlik sifatida JKning 137-moddasi ikkinchi qismi "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Mazkur jinoyat uchun besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Agar ikki nafar shaxs ko'chada ketayotgan ayolni majburlab, mashinaga o'tqazib, o'g'irlab ketsa va uni qo'shni davlat hududiga o'tkazib, boshqa shaxsga sotib yuborsa, qilmish amaldagi qonunchilik bo'yicha JKning odam savdosi uchun javobgarlik belgilangan 135-moddasining ikkinchi qismi "a" bandida o'g'irlash, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash orqali, "i" bandida jabrlanuvchini O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasidan olib o'tgan holda yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda sodir etilgan jinoyat sifatida baholanadi va ushbu jinoyat uchun besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Ya'ni shaxsni o'z uyiga majburlab qaytarish uchun qilingan harakat o'n yilgacha, aksincha, shaxsni o'g'irlab, uni tovar sifatida sotib yuborish esa sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkinligi JKning 8-moddasida belgilangan odillik prinsipi mohiyatiga zid hisoblanadi.

Shunga o'xshash holat talonchilik uchun javobgarlik belgilangan JKning 166-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida belgilangan jazo choralari ham mavjud.

JKning 166-moddasi birinchi qismida oddiy talonchilik (kvalifikatsiya qiluvchi belgilar mavjud bo'lmagan) uchun uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

JKning 166-moddasi ikkinchi qismida: a) hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib; b) ancha miqdorda; d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan talonchilik uchun uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismidagi ozodlikdan mahrum qilish jazosining maksimal muddati bir xil ekanligi ham odillik prinsipiga muvofiq emas.

Shuningdek, soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish uchta alohida jinoyat tarkibini tashkil qilgan holda ushbu uchta jinoyat uchun belgilangan jazo choralari bir xilda belgilangan. Fikrimizcha, bankrot bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektning o'z bankrotligini yashirishdan ko'ra, qasddan bankrotlikka olib kelishning ijtimoiy xavfliligi yuqoriroq bo'ladi, chunki birinchi holatda shaxsning tadbirkorlik sohasida adashganligi, noto'g'ri hisob-kitob qilganligi kabi sabablar bilan uning o'zi xohlamagan holda bankrot bo'lishi yuzaga kelsa, ikkinchi holatda shaxs ataylab bankrotlikni keltirib chiqaradi. Bunday holda ikkala qilmish uchun bir xil jazo nazarda tutilganligi JKning 8-moddasidagi odillik hamda 9-moddasidagi ayb uchun javobgarlik prinsiplariga mos emas.

Qilmishning oqibati va unga nisbatan belgilangan jazo o'rtasida nomutanosiblikni JKning xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini

ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun javobgarlik belgilangan 186-moddasi hamda etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilangan 186¹-moddasida nazarda tutilgan jazolarda ham ko'rishimiz mumkin.

JKning 186-moddasi ikkinchi qismida odam o'limiga olib kelgan qilmish uchun uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, odamlar o'limiga, boshqa og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan qilmish uchun yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

JKning 186¹-moddasida esa odamlar o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarmasa-da, etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ishlab chiqarganlik yoki muomalaga kiritganlik uchun kvalifikatsiya qiluvchi belgilarga qarab o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Bu holat, birinchidan, Konstitutsiyaning 24-moddasidagi yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi haqidagi normaga mos emasligi, ikkinchidan, JK bilan qo'riqlanadigan obyektlar orasida inson, uning hayoti ustuvor ekanligi, uchinchidan, odillik prinsipiga muvofiq kelmaydi.

Umuman olganda, bunday holatlar JKda ko'p uchraydi va ushbu maqolada ularga batafsil to'xtalmay JKning yangi tahririni qabul qilish jarayonida bunday nomuvofiqliklar ko'rib chiqilishi, jinoyatlar uchun belgilanadigan jazolar jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, oqibati va uni sodir qilgan shaxsning xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi kerak, deb hisoblaymiz.

Oliy sud raisi o'rinbosari I. Muslimov bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning 10 oyi davomida 47 340 nafar sudlangan shaxslarning 31 ming 318 nafariga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa turdagi jazolar tayinlangan [10].

Statistika ma'lumotlari sudlanganlarning 66 %iga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlanganini ko'rsatadi.

Oliy sudning statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning 9 oyi mobaynida sudlarda ko'rilgan ishlarining 41 % – ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, 26 % – uncha og'ir bo'lmagan, 29 % – og'ir, 4 % – o'ta og'ir jinoyatlardir [11].

JK Maxsus qismida (2022-yil 1-dekabr holati bo'yicha JK Maxsus qismida amalda 298 ta modda mavjud) belgilangan jazolar tahlil qilindi (bunda faqat modda emas, balki uning qismlari sanksiyalaridagi jazolar ham hisobga olindi) hamda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

- jarima – 296 ta;
- muayyan huquqdan mahrum qilish – 102 ta;
- majburiy jamoat ishlari – 188 ta;
- axloq tuzatish ishlari – 255 ta;
- xizmat bo'yicha cheklash – 16 ta;
- ozodlikni cheklash – 288 ta;
- intizomiy qismga jo'natish – 14 ta;
- ozodlikdan mahrum qilish – 534 ta;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilish – 2 ta.



Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, ozodlikdan mahrum qilish jazosi JKda eng ko'p nazarda tutilgan jazo hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda jinoyatchilikka qarshi kurashishda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida aynan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni qo'llashning ko'payganligi yutuq sifatida ko'rsatilmoqda. To'g'ri, jinoyat sodir qilgan shaxsni imkon qadar jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatish ham iqtisodiy tomondan, ham shaxsning jamiyatga qayta integratsiyasi tomonidan foydali hisoblanadi. Ammo bu kampaniyavozlikka aylanib ketmasligi kerak. Tadqiqot doirasida bir necha marta ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan shaxslarga ham ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlash, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanganidan keyin yana og'ir jinoyatlar sodir qilish holatlari uchrayotganligi kuzatildi.

Jumladan, muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2021-yilda 9 ming 724 tani tashkil qilgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2022-yilda 11 ming 635 taga yetgan, ya'ni 19,6 %ga oshgan. Shu kabi muqaddam jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2021-yilda 168 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 9,5 foizga oshib, 184 tani tashkil etgan [12].

Umuman olganda, amaldagi jinoyat qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar har doim ham JKning prinsiplari mazmuni, kodeksning ichki tuzilishiga mos kelmasligi kuzatilmoqda. Ba'zan ijtimoiy hayotda yuz berayotgan ayrim salbiy holatlarga nisbatan tezda chora ko'rish sifatida jinoyat qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgartirishlar ilmiy asoslarga tayanilmasligi natijasida jamiyatdagi boshqa bir ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta'sir qilib qolishi mumkinligini inkor qilib bo'lmaydi. To'g'ri, qonun ijodkorligi doimiy ravishda rivojlanib borayotgan jarayon hisoblanadi. Jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmonda savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazish; uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish harakatlarini birinchi marta sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar uchun Jinoyat kodeksida belgilangan sanksiyalarga muqobil jazo choralarini kiritish vazifalarining belgilanganligi jinoyat qonunchiligining insonparvarlik va odillik g'oyalari asosida takomillashayotganligini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan va bizning fikrimizcha, bahsli hisoblangan holatlar, avvalo, nazariy jihatdan tadqiq etilishi, qonun ijodkorligi jarayonida hisobga olinishi zarur.

Xulosalar

Qonun ijodkorligi va sud amaliyotida JK normalariga rioya etilishini ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish taklif qilinadi:

birinchidan, qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar ilmiy asosga ega bo'lishi lozim;

ikkinchidan, ijtimoiy xavfli qilmishlarni jinoyat sifatida JKga kiritishning aniq mezonlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq;

uchinchidan, JKdagi mavjud jazolar tizimini bugungi kunda jazolangan shaxsga nisbatan keltirib chiqaradigan oqibatlarini bo'yicha to'g'ri tizimlashtirish zarur;

to'rtinchidan, ayrim jinoiy jazo turlarining nomlanishi uning mazmuniga mos emasligi sababli JKdagi jazo turlarini ushbu jazoning mazmunidan kelib chiqqan holda qayta nomlash zarurati mavjud;

beshinchidan, JKda jazo va probatsiya choralarini ajratish, probatsiya turlari deb nomlangan yangi normalar kiritish zarur;

oltinchidan, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, shartli hukm qilish o'z mohiyatiga ko'ra jazodan ozod qilish hisoblanmasligi sababli ushbu choralarni alohida jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari sifatida belgilash maqsadga muvofiq;

yettinchidan, JK Maxsus qismi normalarida belgilangan jazolar qilmishlarning ijtimoiy xavfliligi jihatidan qayta ko'rib chiqilishi zarur.

REFERENCES

1. Kiyaykin D.V. Ugolovno-pravovoy printsip zakonnosti [Criminal legal principle of legality]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2001, p. 12.
2. Tikhomirov Y.A. Yuridicheskaya kolliziya, vlast', pravoporyadok [Legal collision, power, law and order]. *State and right*, 1994, no. 1, pp. 3–4.
3. Yusupov B. Sud hujjatlarini ijro etmaslikning obyektiv tomoni [The objective aspect of non-execution of court documents]. *Analysis of the Legislation of Uzbekistan*, 2011, no. 4, pp. 58–60.
4. Tohirov F. Xorijiy davlatlar qonunchiligida sud hujjatini ijro etmaslik uchun jinoiy javobgarlik masalalari [Issues of criminal liability for non-execution of a court document in the legislation of foreign countries]. *Science and Innovation*, 2022, no. 3. Available at: <http://scientists.uz/uploads/202203/C-40.pdf>
5. Cherednichenko Y.Y. Printsipy ugolovnogo zakonodatel'stva: ponyatiye, sistema, problemy zakonodatel'noy reglamentatsii (kompleksnoye teoreticheskoye issledovaniye) [Principles of criminal legislation: concept, system, problems of legislative regulation (a comprehensive theoretical study)]. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2006, p. 10.
6. Decision of the Bandikhon District Court on criminal cases dated November 29, 2022. Available at: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
7. Haydarov M.M. Jinoyat qonunchiligida ozodlikni cheklash jazosi vujudga kelishining retrospektiv tahlili [Retrospective analysis of the emergence of the penalty of restriction of liberty in criminal law]. *Lawyer Newsletter*, 2021, no. 5, vol. 1, pp. 39–47.



8. Altmishev T.X. Probatsiya xizmatining axloq tuzatish ishlari jazosi ijrosini tashkil etish faoliyatidagi muammolari [Problems of the probation service in organizing the execution of correctional sentences]. *Journal of Legal Studies*, 2022, spec. iss., p. 148.

9. Kabulov R. Nekotoryye voprosy sovershenstvovaniya ugolovnogo zakonodatel'stva sovremennogo Uzbekistana [Some issues of improving the criminal legislation of modern Uzbekistan]. Science and education at the modern stage: Reforms and strategic directions. Proceedings of the international scientific and practical conference. Tashkent, 2021, p. 83.

10. Muslimov I. Qonuniylik va xolislik bosh mezon [Legality and impartiality are the main criteria]. Available at: <https://sud.uz/2111-2/>

11. Criminal cases of the republic courts of the cases from the legal information. Available at: <https://stat.sud.uz/file/2022//18-10/%//.pdf>

12. Valiyev M. Jazo siyosatidagi yengilliklar yangi jinoyatlar uchun yo'l ochyapti (mi?) [Is the relaxation of the sentencing policy paving the way for new crimes?]. Available at: https://uza.uz/uz/posts/jazo-siyosatidagi-engilliklar-yangi-zhinoyatlar-uchun-yol-ochyaptimi_456032

13. Toshpulatov A.I. The principle of democratism in criminal law. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2023, no. 3 (1), pp. 118–124. DOI: 10.5281/zenodo.7594251

14. Toshpulatov A.I., Abdurasulova Q.R., Choudhoury K. The relationship of substantive and procedural law on the example of criminal law and criminal procedural law. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 2021, December, vol. 11, iss. 12. DOI: 10.5958/2249-7315.2021.00345.2

15. Toshpulatov A.I. Jinoyat-huquqiy prinsiplar tizimi: nazariy tahlil [System of criminal legal principles: theoretical analysis]. *Miasto Przyszłości – City of Tomorrow*, Kielce, 2023, vol. 33, pp. 79–85. Available at: <http://centralasia.bioversityinternational.org/fileadmin/templates/centralasia.net/upload/Resources/TRG/5614-0052.pdf>

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.1./SEBH6945>

UDC: 343.1(045)(575.1)

JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHDA JINOYAT-PROTSESSUAL PRINSIPLARNING AHAMIYATI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti, kapitan

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

e-mail: jasurbekataniazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning protsessual asoslari bo'lgan ish yuritishni rad etish va tugatish instituti hamda jinoyat-protsessual qonunchilikning rahbariy qoidalari hisoblangan jinoyat-protsessual kodeksi prinsiplarining o'zaro mutanosibligi holatlari tadqiq etilgan. Shu bilan birga, Jinoyat-protsessual kodeksi prinsiplarining ahamiyati, qonunchilik va qonunchilikning mazkur sohasi rivojida tutgan o'rni borasidagi fikr va qarashlar tahlil qilingan. Maqolada jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish va jinoyat ishini tugatish amaliyotidagi o'zaro nomutanosibliklar hamda kollizion holatlar yoritilgan. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksi prinsiplaridan biri hisoblangan jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarliligi prinsipi, uning mavjud bo'lish sababi, qonunchilikda belgilanishi, o'zgarish tendensiyasi va uning tutgan o'rni borasida fikrlar o'rganilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llangan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar, tergov hamda sud amaliyoti ko'rib chiqilgan. Buning natijasi o'laroq, Jinoyat-protsessual kodeksiga tegishli o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: prinsiplar, rahbariy qoidalar, jinoyat ishini qo'zg'atish muqarrarliligi, jinoyat ishini tugatish, rad etish, ijtimoiy xavflilik.

ЗНАЧЕНИЕ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ПРИНЦИПОВ В ОСВОБОЖДЕНИИ ОТ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,

докторант факультета послевузовского образования
Университета общественной безопасности

Республики Узбекистан, капитан



Аннотация. В данной статье рассмотрены случаи соразмерности принципов УПК, которые являются процессуальными основаниями освобождения от уголовной ответственности, института отказа и прекращения производства по делу и руководящих положений уголовно-процессуального законодательства. При этом были изучены мнения и взгляды ученых на значение принципов Уголовно-процессуального кодекса, их роль в законодательстве и развитии данной сферы законодательства. В статье освещаются несоответствия в практике отказа в возбуждении уголовного дела и прекращения уголовного дела, а также коллизионные обстоятельства. Также были изучены мнения относительно принципа неотвратимости возбуждения уголовного дела, считающегося одним из принципов УПК, причины его существования и установления в законодательстве, тенденции к изменению его значения. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В ходе исследования был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений или дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан.

Ключевые слова: принципы, руководящие положения, неизбежность возбуждения уголовного дела, прекращение уголовного дела, отказ, общественная опасность.

THE IMPORTANCE OF CRIMINAL PROCEDURAL PRINCIPLES IN THE EXEMPTION FROM CRIMINAL LIABILITY

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,

Doctoral student of the Faculty of Postgraduate Education,
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Captain

Abstract. This article examines the cases of proportionality of the principles of the CPC, which are the procedural grounds for exemption from criminal liability, the institution of refusal and termination of proceedings, and the guidelines of Criminal Procedural legislation. At the same time, opinions and views on the importance of the principles of the Criminal Procedural Code, its role in legislation and its role in the development of this area of legislation have been studied. The article highlights inconsistencies in the practice of refusal to initiate criminal proceedings and termination of criminal proceedings, as well as conflicting circumstances. Considerations regarding the principle of the inevitability of initiating a criminal case, which is considered one of the principles of the CPC, the reasons for its existence, the establishment in legislation, the tendency to change and its role are also studied. The methods of analysis, synthesis, induction, deduction, comparative legal analysis have been used in the research. In the course of the study, advanced foreign experience, scientific and theoretical views and investigative and judicial practice have been studied, as a result of which proposals

and recommendations have been developed for making appropriate amendments or additions to the Criminal Procedural Code of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: *principles, guidelines, inevitability of initiation of a criminal case, termination of a criminal case, refusal, public danger.*

Bugungi kunda jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish va unda inson qadrini bosh mezon sifatida belgilash qonun chiqaruvchining oldida turgan muhim vazifalardan ekanligi belgilab qo'yildi. Shu sababli protsessual qonunchilik normalarini takomillashtirishda protsessual rahbariy qoidalar, eng avvalo, xalqchil va xalqaro huquqqa muvofiq bo'lishi lozim.

Ta'kidlash joizki, shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod etishning protsessual qoidalari hisoblangan ish yuritishni rad etish yoki tugatish jinoiy-protsessual qonunchilikning rahbariy prinsiplariga qanchalik mos ekanligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala olimlar tomonidan quyidagicha talqin qilingan.

Xususan, A.X. Rahmonqulov jinoyat-protsessi prinsiplari jinoyat-protsessual huquqda naqadar muhim o'rin egallashini e'tirof etib, "jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, butun protsess tizimining tuzilishini belgilovchi rahbariy qoidalardir", "prinsiplar jinoyat protsessining asosini, ya'ni uning eng muhim va belgilovchi negizlarini tashkil qiladi. Ushbu asosdan boshqa barcha xossa va munosabatlar keltirib chiqariladi. Protsessning prinsipial asosi qanday bo'lsa, uning mohiyati ham shunday bo'ladi. Busiz jinoyat protsessi mavjud bo'lishi ham, rivojlanishi ham mumkin emas [1, 49–50-b.]", deb ta'kidlaydi.

Professor U.A. Tuxtasheva jinoyat protsessi prinsiplariga "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksida mustahkamlangan, jinoyat ishlarini yuritishning eng muhim xususiyatlari, xarakteri va mazmun-mohiyatini belgilovchi hamda jinoyat ishlarini qo'zg'atish, tergov qilish, sudda ko'rib chiqish va hal qilish bilan bog'liq jinoyat-protsessual faoliyatda jinoyat-protsessual munosabatlar sohasiga jalb etilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda ta'minlash hamda jinoyat protsessi maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy qoidalardir [2, 46-b.]", deya ta'rif beradi.

Barcha olimlarning qonunchilik prinsiplari borasidagi fikrlari qat'iy va o'zgarmasligini qayd etish mumkin. Jinoyat-protsessual huquq prinsiplari mazmunan jinoyat-protsessual huquq negizi va mavjud bo'lishi uchun muhim asos ekanligini anglashimiz shart. Bu borada biz e'tirof etishga urinayotgan asos va negiz bo'lgan prinsiplar, ya'ni rahbariy hamda maxsus qismda nazarda tutilgan qoidalar o'rtasida o'zaro qarama-qarshilik yoki ziddiyat mavjud bo'lishi mumkin emas.

Z.F. Inog'omjonovanning fikricha, "Prinsiplar doim o'zida huquqning dastlabki normalarini aks ettiradi. Boshqa barcha normalar jinoyat protsessi prinsiplaridan kelib chiqadi. Prinsip normalari imperativ xarakterga ega bo'lib, huquqiy vositalarni barcha qurollar bilan ta'minlaydigan majburiy buyruq shaklida namoyon bo'ladi. Ular inson, fuqaro va tegishli davlat organlariga qaratiladi. Jinoyat protsessini yuritish uchun mas'ul davlat organlari o'rnatilgan prinsiplar asosida harakat



qilishlari shart va ularni buzish bilan bog'liq bo'lgan oqibatlar uchun javob beradilar [3, 35-b.]".

Mazkur fikrlarga qo'shilgan holda shuni e'tirof etish lozimki, har qanday huquqiy davlat borki, uning qonunlari asosida belgilangan ijtimoiy munosabat qoidalari insoniyatni umume'tirof etgan ma'lum prinsiplar asosida tuziladi va unga bo'ysunadi. Garchi javobgarlik murosasiz yoki jazolar qanchalik qattiq bo'lmasin, shu prinsiplar doirasidagina ishlab chiqiladi, rivojlanadi va takomillashadi. Shu sababdan rahbariy qoidalar doimo inson sha'ni, qadr-qimmatini saqlovchi huquqlarga mos bo'lishi muhim bo'lib, har qanday shaklda inson huquqini cheklashi mazkur huquq sohasi rivojiga salbiy ta'sir qiladi yoxud uni to'xtatadi.

Amaldagi JPKning 15-moddasida "Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart", deb belgilab qo'yilgan.

Jinoyat ishini tugatish borasida rahbariy prinsiplar bilan vujudga kelayotgan kollizion holatlar bo'yicha bir necha olim o'z fikrlarini ilgari surgan.

Xususan, B. Murodovning haqli ta'kidlashicha, "jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining 2-moddasida qayd etib o'tilgan "aybdorlarni fosh etish" va "jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berish" kabi vazifalar o'z mazmun-mohiyati bilan jinoyat ishini tugatish institutini inkor etadi. Zotan, jinoyat ishi tugatilishi natijasida javobgarlikdan ozod bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo berilmaydi. Qolaversa, javobgarlikdan ozod bo'lgan shaxs sud hukmi bilan aybdor deb topilmaydi. Jinoyat-protsessual qonun normalari o'rtasidagi mazkur kolliziyani bartaraf etish uchun JPKning 2-moddasining birinchi qismida "har bir shaxsga adolatli jazo berilishi" jumlasidan keyin *"qonunda belgilangan asoslar bo'lgan taqdirda, javobgarlik va jazodan ozod qilinishi"* jumlasini qo'llash taklif etilgan [4, 15-b.]".

Albatta, B. Murodovning bu boradagi fikrlarini o'rinli deb topgan holda, u tomonidan ilgari surilgan mazkur taklifda shaxsga jinoiy qilmishi natijasida jazo berilmasligi va jinoiy ta'qib to'xtatilishi JPKning yuqorida keltirilgan prinsipiga mos kelmasligi, shu sababli kollizion normalarni tartibga solish uchun jinoyat ishini tugatish bilan bog'liq holatlar nazarda tutilgan.

B. Murodovning fikrlariga shuni qo'shimcha qilish lozimki, nafaqat JPKning 2-moddasi, balki 15-moddasida nazarda tutilgan holatlar ham o'zining mohiyatiga ko'ra, jinoyat ishini yuritishni istisno etuvchi holatlar, ya'ni JPKning 333-moddasi bilan ham o'zaro kollizion holatni vujudga keltirayotganligini inobatga olish darkor. O'zbekiston Respublikasi JPKning 333-moddasiga bergan vakolatga ko'ra, JPKning 84-moddasi birinchi qismining 1-, 3-8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi. JPKning 15-moddasiga ko'ra esa, rahbariy prinsip hisoblangan "Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarliligi" prinsipi quyidagi majburiyatni yuklaydi, ya'ni prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda

o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, B. Murodovning jinoyat ishini tugatish instituti bilan bog'liq izlanishlarida jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng vujudga keladigan protsessual munosabatlar natijasi o'laroq shakllanganligi ma'lum bo'ladi. Bu tergovga qadar tekshiruv jarayonida ish yuritishni rad etish bilan bog'liq munosabatlarda vujudga keladigan ilmiy-nazariy hamda amaliy muammolar chetda qolganligi tufayli qo'shimcha tadqiq etish zaruriyatini taqozo etadi.

D.M. Mirazovning fikrlariga ko'ra, "Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari aniqlangan har bir holda o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishga nafaqat haqli, balki majburlarlar [5, 299-b.]".

Mazkur fikrlarga qo'shilishning imkoni yo'q, chunki jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda ham JPKning 84-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, 325- va 333-modda tartibida mazkur vakolatli shaxslar jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish haqida qaror chiqarishi lozimligi belgilab qo'yilgan.

N.P. Kuznetsov ham "Sud, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi har bir jinoyat belgilari mavjud bo'lgan, fakt bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishlari, ikkinchi tomonidan esa ish bo'yicha yurituvni istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lganda, jinoyat ishini qo'zg'atishga yo'l qo'ymasliklari lozim" [6, 16-b.], degan xulosaga kelgan.

N.P. Kuznetsovning fikrlariga qo'shilgan holda har doim ham mansabdor shaxslarning jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilishlari maqsadga muvofiq bo'lmasligi va ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar mavjud bo'lganda, jinoyat ishini qo'zg'atishga yo'l qo'ymasliklari shart ekanligini e'tirof etishimiz lozim. Biroq ko'pincha jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin jinoyat sodir etishda aybdorlar doirasi aniqlanmaydi va buni aniqlash uchun jinoyat ishini qo'zg'atishni taqozo etuvchi tergov harakatlarini o'tkazish zarurati tug'iladi.

P.S. Elkindning fikricha, "Ko'p hollarda jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlashga hech qanday ehtiyoj sezilmaydi. Chunki jinoyat ishini qo'zg'atish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lishi kifoya. Ammo maxsus subyektli jinoyatlarda jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash lozim. Negaki qilmish maxsus subyekt tomonidan sodir etilmagan bo'lsa, jinoyat hisoblanmaydi. Ammo ushbu bosqichda jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va uni fosh etish vazifasi bor yoki iloji boricha jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash kerak" [7, 44-b.].

Shunday bo'lsa-da, tadqiqot olib borilayotgan mavzuyimiz doirasida jinoyat alomatlari yaqqol ko'rinib turgan va keyingi ish yurituvini istisno etgan holda sudning jazo qo'llashi nomuvofiq holatlarga alohida institut sifatida qaralishi lozim deb o'ylaymiz.

Yuqorida tahlil etilayotgan prinsip bo'yicha Z.F. Inog'omjonova va G.Z. To'laganovlar quyidagilarni bayon qilishgan: "Ushbu prinsipni amaliyotda qo'llashda bir qancha muammolar mavjud. JPKning 15-moddasidagi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda surishtiruvchi, prokuror, tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyatini oladi. Ammo amaliyotda ayrim hollarda jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan qo'zg'atilgan jinoyat ishini rad qilish bilan cheklaniladi. Bundan tashqari, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida isbotlash predmetiga e'tibor qilinmasligi sababli ko'p jinoyat ishlari tugatiladi".



Amaliyotchi va nazariyotchi olimlar tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarlari prinsipi, bizning fikrimizcha, to'g'ri tadqiq etilmagan. Chunki dastlabki tergovda ayblanuvchiga nisbatan boshqa jinoyatni sodir etganlikni ko'rsatuvchi dalillar mavjud bo'lganda, ayblanuvchiga nisbatan yangi ayblov e'lon qilinadi. Shu jinoyat bo'yicha boshqa shaxsning ishtirokchiligi aniqlangan hollarda, u shaxs ishga ayblanuvchi sifatida jalb qilinadi. Ammo unga nisbatan yangi jinoyat ishi qo'zg'atilmaydi. Biroq jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarlari prinsipida har bir jinoyat fakti bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish muqarrarlari ko'rsatilgan [3, 99–106-b.].

Z.F. Inog'omjonova va G.Z. To'laganovlar fikrlarida nisbatan eskiroq qonunchilik amaliyoti gavdalanayotganligi nuqtayi nazaridan ba'zi fikrlarini o'zgartirgan holda talqin qilishimiz lozim.

Chunonchi, bugungi kunda JPKning 15-moddasida sudning jinoyat ishini qo'zg'atish vakolati mavjud emasligi va surishtiruv butunlay yangi vakolatli jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov kabi ish olib boruvchi organ sifatida gavdalanayotganligini qayd etish lozim. Shunday bo'lsa-da, mualliflarning ushbu norma mazkur organlarga bunday majburiyatni yuklayotganligi to'g'risidagi umumiy fikrlariga ta'sir etmaydi. Ya'ni ularning jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno qiluvchi va tugatishni taqozo qiluvchi holatlar mavjudligi, har bir jinoyat fakti bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish ushbu prinsip bilan mutanosib emasligi borasidagi fikrlari juda o'rinlidir. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, 2006-yildan buyon nazariyotchi va amaliyotchi olimlarning e'tiroziga sabab bo'lgan ushbu prinsipni o'zgartirish yoxud chiqarib tashlash bo'yicha fikrlar bildirilganligiga qaramasdan, bugungi kunga qadar ushbu kollizion holatlar bartaraf etilmagan.

Yana bir muhim jihat: surishtiruv va dastlabki tergov davomida ayblanuvchining boshqa jinoyatni sodir etganligini ko'rsatuvchi dalillar aniqlanganda, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JPKning 362-moddasi tartibida dastlabki ayblov o'zgartirilishi, qisman tugatilishi yoki to'ldirilishi lozimligi qayd etilgan. Tahlil etilayotgan prinsip talablari nuqtayi nazaridan ushbu holatda jinoyat fakti bo'yicha yangi jinoyat ishi qo'zg'atish lozimligi talab etilsa, mazkur normalar o'rtasida kollizion holat mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Vaholanki, amaliyotda ishlayotgan mexanizmga jinoyat-protsessual qonunchilik vakolat bergan, ya'ni bunday hollarda surishtiruvchi yoki tergovchi yangi jinoyat ishini qo'zg'atib, shaxsga ayblov e'lon qilmaydi, balki yurituvdagi jinoyat ishi bo'yicha ayblovni to'ldiradi xolos.

A.X. Rahmonqulovning jinoyat ishini qo'zg'atish muqarrarlari prinsipi mohiyati bo'yicha keltirib o'tgan sharhida "mansabdor shaxslarning protsessual hujjatlari jabrlanuvchi, ushbu ishdan manfaatdor shaxs yoki tashkilotning talablariga bog'liq bo'lmasligi" hamda "bu qoida jinoyat ishi jabrlanuvchining shikoyati bo'yicha qo'zg'atilgan hollarda amal qilmaydi, chunki bunday hollarda jinoyat ishi aynan jabrlanuvchining arizasi bo'yicha qo'zg'atilishi kerak"ligi aytib o'tilgan [1, 57-b.].

A.X. Rahmonqulov mazkur prinsipda faqat xususiy ayblov instituti bilan bog'liq kollizion holatga urg'u bermoqda, biroq jinoyat protsessi prinsipi o'laroq, cheklayotgan ish yuritishni istisno qiluvchi va ishni tugatishni belgilovchi qoidalarga zid keluvchi kollizion holatlar ham mavjudligini unutmasligimiz zarur. Bunga asos qilib, JPKning 362-moddasi ikkinchi qismida, "Ushbu Kodeksning 83-moddasida hamda

84-moddasining birinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan ayblanuvchini reabilitatsiya etish uchun asos bo'ladigan yoki ishni yuritish uchun monelik qiladigan holatlar aniqlansa, ayblov tugatiladi" deya qayd etilganligi kifoya deb o'ylaymiz.

Shuningdek, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar yuzasidan qabul qilinuvchi qarorlar va jinoyat ishi qo'zg'atish muqarrarlighi prinsipi o'rtasida nomutanosibliklar vujudga kelishi mumkinligini inobatga olish darkor. Xususan, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar (JKning 36–41¹-moddalari)da jinoyatning barcha zaruriy tarkibi bir qarashda yaqqol namoyon bo'lib turadi, biroq uning belgilaridan biri (ijtimoiy xavflilik, g'ayriqonuniylik yoki aybli bo'lmasligi)ning mavjud bo'lmasligi uni jinoyat sifatida baholashni istisno etadi.

Jinoyat ishi qo'zg'atishning muqarrarlighi prinsipi yuqorida nazarda tutilgan hollarni inobatga olishni istisno etadi hamda jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan har bir holatda jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyatini yuklaydi.

Umuman olganda, barcha olimlar mazkur jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarlighi prinsipi va jinoyat-protsessual huquqi maxsus qismi normalari o'rtasidagi qarama-qarshilik mavjud ekanligini ta'kidlashgan va ushbu ziddiyatni bartaraf etish muhim ekanligini qayd etishgan.

Shuningdek, M.D. Bo'tayev o'zining tadqiqotlarida JPKning 15-moddasi bilan ushbu JPKning 84-, 325- va 333-moddalari o'rtasidagi kollizion holatlarni bartaraf etish hamda jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxslarning dispozitiv huquqlarini qo'llash doirasi kengayib borayotganligini inobatga olib, jinoyat ishini qo'zg'atish muqarrarlighi prinsipini (15-modda) amaldagi JPKdan chiqarish zarurligi haqida xulosaga kelgan [8, 15-b.].

Mazkur fikrlar o'rinli, biroq yuqoridagi tahlillar JPKning 15-moddasi nafaqat JPKning 84-, 325- va 333-moddalari, balki JPKning 362-moddasi va boshqa bir qator normalar bilan kollizion holatlarni keltirib chiqarayotganligini ko'rsatadi.

Bu kabi muammolar boshqa xorijiy mamlakatlarning ham jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, Tojikiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasining JPKlarida ham, garchi reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq protsessual harakatlarga ruxsat berilgan bo'lsa-da, qonunning rahbariy prinsiplarida *"jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berish"* va *"jinoyat aniqlangan har bir holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyati"* nazarda tutilganligi bilan kollizion holatlarga yo'l qo'yilgan [9-11].

Biroq Rossiya Federatsiyasining jinoyat-protsessual qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 15-moddasida nazarda tutilgan normadan farqli o'laroq, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari majburiyatini emas, balki jinoyat alomatlari topilgan har bir holda jinoyat voqealari, jinoyat sodir etishda aybdor shaxs yoki jinoyatlarning fosh etilishi choralari ko'rish majburiyati mavjud [12]. Xuddi shunday qoida Qirg'iziston Respublikasi JPKning 25-moddasida qayd etilgan va unda ish qo'zg'atish emas, balki aybdorlar va jinoyatni fosh etish majburiyati nazarda tutilgan [13].



Umuman olganda, mazkur norma jinoyat-protsessual qonunchilik prinsipi hisoblanmaydi. Shu sababli yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mazkur 15-moddada nazarda tutilgan jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarlari prinsipini nazarda tutuvchi normani kodeksdan butunlay chiqarib tashlash yoki mansabdor shaxslarga mazkur protsessual majburiyatdan ozod qilishi mumkin bo'lgan holatlarni istisno tariqasida kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi fikrimizni asoslash uchun xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligi rahbariy prinsiplariga murojaat qilish zarur.

2001-yil 16-oktabr kuni qabul qilingan Saudiya Arabistoni Jinoyat-protsessual kodeksining birinchi asosiy qoidalar qismining 14-moddasida tergov va sud ta'qibi byurosi (prokuratura) o'z qonunchiligi va uning ijro qoidalariga muvofiq, tergov va jinoiy ta'qiblarni amalga oshirishi belgilangan, biroq rahbariy qoidalarda jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyati yuklatilmagan [14]. Rahbariy qoidalar hisoblangan Jinoyat-protsessual kodeksining prinsiplari orasida jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyati Birlashgan Arab Amirliklari [15], Janubiy Koreya [16], Yaponiya [17], Gruzziya [18] va Armaniston [19] kabi davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida ham mavjud emas.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish zarurki, Estoniya Jinoyat-protsessual kodeksining 6-moddasida garchi jinoyat ishi qo'zg'atish majburiyati nazarda tutilgan prinsip bo'lsa-da, biroq mazkur normada Estoniya JPKning 199-moddasiga ko'ra, jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno qiluvchi holatlar mavjud bo'lganda va 201-moddasi 2-qismi, 202-, 203-, 203¹-, 204-, 205-, 205¹-, 205²- yoki 435-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat ishini tugatish nazarda tutilgan hollarda bunday majburiyat amal qilmasligi ko'rsatib o'tilgan [20].

Yuqoridagi huquqiy jihatdan taraqqiy topgan mamlakatlarning jinoyat-protsessual kodekslaridagi rahbariy prinsiplarda nazarda tutilgan barcha hollarda ham jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyati mavjud emas, hatto sanab o'tilgan Estoniya JPKda ham prinsip sifatida mazkur normaning mavjud bo'lishiga ehtiyoj yo'qligini kuzatishimiz mumkin. Binobarin, bu prinsip aniq normativ protsessual majburiyat, ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyatini yuklaydi, normaning o'zida ushbu majburiyatni istisno qiluvchi holatlar nazarda tutilganligi uni mantiqan prinsip sifatida yo'qqa chiqarishi mumkin, ya'ni bu Jinoyat-protsessual kodeksida ba'zi noaniqliklarni vujudga keltiradi.

Shuningdek, S.M. Saxaddinov boshchiligidagi ba'zi olimlar ish yuritishni rad etish yoki tugatish instituti Konstitutsiya va Jinoyat-protsessual kodeksining ayrim prinsiplari va qoidalari talablariga zid ekanligini ham qayd etishgan [21, 68-b.]. Professor I.L. Petruxinning fikriga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan jinoyat ishini tugatish uchun asoslarning tasnifi hech qanday yuridik ahamiyatga ega bo'lmaganligi, qiyinchilik bilan qabul qilinganligi hamda amaliyotni chalkashtirib yuborishi mumkinligi sababli ushbu institutdan butunlay voz kechish lozim [22, 25-b.].

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga ko'ra, nazariy jihatdan mazkur institut prinsipial qoidalarga ziddek ko'rinadi, biroq mazkur yo'nalishda bir qancha xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Natijada jinoyat ishini tugatish instituti aybsizlik prezumpsiyasi boshchiligidagi bir qator konstitutsion va jinoyat-

protsessual rahbariy qoidalarga zid emasligini aniqlaganlar [23, 19-, 8-, 15-b., 24, 4]. Shu sababli bu boradagi bahslarni faqat ilmiy-nazariy asoslarga havola qilgan holda, jinoiy qilmish bo'yicha ish yuritishni rad etish va tugatish instituti aybsizlik prezumpsiyasiga zid emas, aksincha, muvofiq ekan degan xulosaga kelamiz. Zotan, aybsizlik prezumpsiyasining bosh talabi jinoyat sodir etgan har bir shaxsning tegishli sud protsessiga jalb etilishi emas, aksincha, aybi bo'lmagan hech bir shaxs asossiz ayblanmasligi va javobgarlikka tortilmasligidir.

Yuqoridagi fikrlarning huquqiy tahlillari natijasi o'laroq, quyidagi xulosaga kelish mumkin, ya'ni O'zbekiston Respublikasi JPKning 15-moddasida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi JPKning rahbariy prinsipi hisoblangan "Jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarliligi" normasini mazkur kodeksning prinsiplar qatoridan chiqarib tashlash yoki quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq.

15-modda. Jinoyat ishini qo'zg'atishning shartligi

Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan hollarda, mazkur kodeksning 84-moddasi nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, 325-, 333-moddasi tartibida ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar aniqlanmagan hollarda, o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarni ko'rishlari shart.

Ushbu o'zgartish, bir tomondan, jinoyat-protsessual normalar o'rtasidagi kollizion holatlarni bartaraf etsa, ikkinchi tomondan, jinoiy-protsessual qonunchilik normalarining rivojlanishi va takomillashishiga erishiladi.

Shu bilan birga, mazkur moddaning prinsiplar qatoridan chiqarilishi yoki yuqoridagi tahrirda bayon etilishi jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxslarning dispozitiv huquqlarini qo'llash doirasi kengayishiga asos bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Yuqoridagi tahlillarga xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, qonun ijodkorligida rahbariy qoidalar, ya'ni prinsiplar muhim o'rin egallaydi va mazkur qoidalarining mantiqiyliqi, insonparvarligi, qolaversa, ilmiy-amaliy jihatdan to'g'riligi mazkur normalarning rivojlanishi va takomillashishiga xizmat qiladi. Shu sababli bu borada tadqiqot ishlari, eng avvalo, rahbariy qoidalarga muvofiqligining o'rganilishi dolzab o'rin egallashi kerak degan fikrdamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessi [Criminal procedure of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Academy of MIA of the Republic of Uzbekistan, 2012, pp. 49–50.
2. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism [Criminal-Procedural Law]. General part. Tashkent, TSUL, 2017, p. 46.
3. To'laganova G.Z., Inog'omjonova Z.F. Jinoyat protsessi muammolari [Problems of Criminal Procedure]. Tashkent, TSIL, 2006.
4. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish [Improvement



of the institution of termination of a criminal case]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2018, p. 15.

5. Mirazov D.M. et al. O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessi [Criminal Procedure of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Academy of MIA of the Republic of Uzbekistan, 2012, Chapter 12, p. 299.

6. Kuznetsov N.P. Dokazyvaniye v stadii vozbuzhdeniya ugolovno delo [Proving at the stage of initiation of a criminal case]. Voronezh, 1983, p. 16.

7. Elkind P.S. Tseli i sredstva ikh dostizheniya v ugolovno-protsessual'nom prave [Goals and means of achieving them in criminal procedural law]. Leningrad, 1976, p. 44.

8. Botaev M.D. Tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish [Improving the Institute of investigation until the interrogation]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2018, p. 15.

9. Criminal Procedural Code of the Russian Federation, 2001, December 18, no. 174-FZ.

10. The Criminal Procedural Code of the People's Republic of China, Ad. at the 2nd session of the National People's Congress of the Fifth Convocation, 1979, July 1.

11. The Criminal Procedural Code of the Republic of Tadzhikistan, of December 3, 2009, with amendments and additions as of 19.07.2022.

12. Criminal Procedural Code of the Russian Federation, 2001, December 18, no. 174-FZ, article 21.

13. Criminal Procedural Code of the Kyrgyz Republic, 2021, October 28, No. 129. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/111527>

14. Criminal Procedural Law – Saudi Arabia Criminal Procedural Law Royal Decree, 2001, October 16, no. (M/39), article 1-15.

15. Criminal Procedural law of the UAE. Main provisions article 1-6.

16. Criminal Procedural Act of South Korea – Hansa-son-biop, 1954, September 23, no. 341.

17. Criminal Procedural Code of Japan (Keydzi-soshyo-Ho). Law No. 131, 10.07.1948.

18. The Criminal Procedural Code of Georgia, 2009, October 9, no. 1772-IIc.

19. The Criminal Procedural Code of the Republic of Armenia, 1998, September 1, no. ZR-248.

20. The Criminal Procedural Code of Estonia. Adopted on 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166 Entered into force on 01.07.2004. Article 6. The principle of mandatory criminal proceedings.

21. Sakhaddinov S.M. Mekhanizmy raskayaniya i primireniya: dve grani instituta mediatsii [Mechanisms of dissemination and application: two facets of mediation Institute]. *Law*, 2013. no. 4, p. 68.

22. Petrukhin I. L. Conceptual foundations of criminal justice reform. *State and Law*, 2002, no. 5, p. 25.

23. Peretokin S.N. Protection of human and civil rights and freedoms upon termination of a criminal case. Moscow, 2006, p. 19.

24. Ilyukhina S.V. Termination of a criminal case and criminal prosecution at the stage of preliminary investigation on the grounds provided for in Article 25.28 of the Criminal Procedural Code of the Russian Federation, Article 8.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.1./IARR4293>
UDC: 347.934(045)(575.1)

UYUSHGAN GURUHLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA DASTLABKI VA KEYINGI TERGOV HARAKATLARINI O'TKAZISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikum o'qituvchisi

ORCID: 0000-0003-2729-526X

e-mail: abduvalitogayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada uyushgan guruhlarini sodir etgan jinoyati uchun tergov qilishda tergov harakatlari o'tkazishning muhim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, tergovchi va operativ-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, dastlabki tergovni amalga oshirish kabi protsessual harakatlarning qanday tartibda bajarilishi keltirilgan. Mazkur tezisning asosiligi jinoyatlarning ko'plab turlari, jumladan, uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liq. Bunday kriminalistik xususiyat faqat jinoyatlarni tergov qilishda isbotlanganlik bilan emas, balki jinoiy faoliyat belgilarining xususiyatlari, shuningdek, jinoyatni isbotlashda foydalaniladigan elementlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan izohlanadi. Tergovchilar va tezkor xodimlarning uyushgan jinoiy faoliyatning kriminalistik xususiyatini aniqlashi va uni tegishli maxsus turga xos bo'lgan tipik kriminalistik ma'lumotlar bilan solishtirishi bayon etilgan. Shuningdek, jinoiy guruh faoliyatini tergov qilishning dastlabki bosqichida tezkor qidiruv, tergov va ekspertiza muammolarini o'z vaqtida va samarali hal qilishga yordam beradigan kriminalistik usul va vositalardan foydalanish asoslangan.

Kalit so'zlar: uyushgan jinoiy guruh, kriminalistik tekshiruv, operativ-qidiruv faoliyati, nazorat-reviziya organlari, tergov materiallari, agentlar, axborot olish.

ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ И ПОСЛЕДУЮЩИХ СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШЕННЫХ ОРГАНИЗОВАННЫМИ ГРУППАМИ

Шоназаров Абдували Шоназарович,

преподаватель юридического техникума

Кашкадарьинской области



Аннотация. В данной статье освещены важные аспекты следственных действий при расследовании преступлений, совершенных организованными группами. Выражено взаимодействие следователя с органами и работниками, осуществляющими оперативно-розыскную деятельность, порядок совершения процессуальных действий, такого как осуществление предварительного следствия. Справедливость данного тезиса связана с расследованием многих видов преступлений, в том числе с расследованием преступлений, совершенных организованными преступными группами. Объясняется такой криминологический признак не только доказуемостью при расследовании преступлений, но и сведениями о характеристике необходимых признаков преступной деятельности, а также сведениями об элементах, которые используются для доказывания преступления. Утверждается, что следователи и оперативники будут выявлять криминалистическую природу организованной преступной деятельности и сопоставлять ее с типичными криминалистическими данными, характерными для соответствующего конкретного вида. Также выражено использование криминалистических методов и средств, помогающих своевременно и эффективно решать задачи оперативного розыска, следствия и экспертизы на начальной стадии расследования деятельности преступной группы. Выделены криминалистические особенности расследования следователями и оперативниками преступлений организованных преступных групп.

Ключевые слова: Организованная преступная группа, уголовный розыск, оперативно-розыскная деятельность, контрольно-ревизионные органы, следственные материалы, агенты, получение информации.

PECULIARITIES OF PRELIMINARY AND SUBSEQUENT INVESTIGATIVE ACTIONS IN THE INVESTIGATION OF CRIMES COMMITTED BY ORGANIZED GROUPS

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,
Teacher, Law College of
Kashkadarya Region

Abstract. This article highlights important aspects of investigative actions in the investigation of crimes committed by organized groups. The interaction of the investigator with the bodies and employees carrying out operational-search activities, the procedure for performing procedural actions, such as the implementation of a preliminary investigation, are expressed. The validity of this thesis is related to the investigation of many types of crimes, including the investigation of crimes committed by organized criminal groups. Such a criminological feature is explained not only by provability in the investigation of crimes but also by information about the characteristics of the necessary signs of criminal activity, as well as information about the elements that are used to prove a crime. It is argued that investigators and operatives will identify the forensic nature of the organized criminal activity and compare it with

typical forensic data specific to the respective specific type. The use of forensic methods and tools that help to timely and effectively solve the problems of operational search, investigation and examination at the initial stage of investigating the activities of a criminal group are also expressed. The forensic features of investigations of organized criminal groups by investigators and operatives are highlighted.

Keywords: *organized criminal group, criminal investigation, operational-investigative activities, control and audit bodies, investigative materials, agents, obtaining information.*

Kirish

Tergovchi va operativ-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar dastlabki tergovni optimallashtirishning eng samarali vositalaridan biridir. Ushbu tezisning asosiligi jinoyatlarning ko'plab turlari, shu jumladan, uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liqdir. Shuningdek, mavjud axborot tanqisligini to'ldirish va tergovchining tergov va boshqa protsessual harakatlarini ta'minlash muhimdir. Bundan tashqari, bu ikki yo'nalish jinoyatlarni tergov qilishda bir-biriga bog'liqdir, chunki axborot tanqisligi muammosini hal qilish esa to'g'ri rejalashtirish va tegishli tergov harakatlarini amalga oshirish muammosini hal qilishga imkon beradi va ushbu tergov harakatlarini amalga oshirishni ta'minlash tergovchining kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lishiga qaratilgan muxolifat haqida ma'lumot olishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun bunday o'zaro munosabatlar har doim jinoyatlarni tergov qilishning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi. Bu muvaffaqiyatga erishish imkonini beradigan barcha harakatlarning izchilligini ko'rib chiqadi. Ma'lumki, tergovning ko'pgina xususiyatlari jinoiy harakatning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Uyushgan jinoyatchilik faoliyati bilan bog'liq jinoiy ishlarni tergov qilishning o'ziga xosligi shundaki, nafaqat tergov harakatlarining o'ziga xos uslubiylarini ishlab chiqarish, balki tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini isbotlashda keng foydalanish, ilmiy va texnik vositalardan foydalanish zarurati; shuningdek, protsessual masalalar ham mavjuddir.

Material va metodlar

Bugungi kunda tergov uyushgan jinoiy guruhlarining sodir etgan jinoyatiga qarshi bir nechta qo'llanma (metodlar) asosida olib boriladi.

1. Metodik qo'llanmalarda tergovga qadar ma'lumotlar bo'lishi kerak.
2. Kriminalistik tekshiruv, uyushgan faoliyati, tekshiruv, tergov qilingan jinoiy ishlar, avval sodir etgan jinoyatlari.

To'g'ri yig'ilgan ma'lumotlar jinoyatni ochishda asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Jinoyatni ochish uchun tergov to'g'ri olib borilishi va tekshiruv ishlari o'z vaqtida amalga oshirilishi kerak. Bu ishning tez va samarali yakun topishini ta'minlaydi. Buning uchun huquq tartibot organlari va xavfsizlik xizmati boshqarmasi o'zaro samarali aloqalar olib borishlari zarur.

Tergovning birinchi bosqichi quyidagilardan iborat:

1. Uyushgan jinoiy guruh huquqni muhofaza qiluvchi organlar kuzatuvda bo'lganmi-yo'qmi (avvalgi qilgan jinoyatlari uchun);
2. Uyushgan jinoiy guruhning jinoyat ishi yuzasidan ushlangan a'zolari haqida ma'lumotlar;
3. Qanday vaqtda (holatlarda) jinoiy faoliyat yuritgan (avvalgi yoki keyingi holatlar).

Birinchi navbatda, operativ tergov-tekshiruv ma'lumotlari (materiallari) jinoyatchilarni qo'lga olishni boshlash uchun aniq maqsad bo'lib xizmat qiladi.

Uyushgan jinoiy guruhning kriminal faoliyati va qanday tashkil topgani aniqlab boriladi. Uyushgan jinoiy guruh qo'lga olingandan so'ng jinoyat joyida guvohlar, jabrlanuvchilar va boshqa gumonlanuvchilar so'roq qilinadi. Agar tergovda jinoyat izlari ma'lum bo'lganda uyushgan jinoiy guruh faoliyatini tergov qilish quyidagi tartib bilan amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, sodir etilgan jinoyatlar va boshqa subyektiv omillar butun tergov davomida asosiy rol o'ynaydi:

1. Uyushgan jinoiy guruh tomonidan qilgan jinoiy ishlarini yopish uchun huquq tartibot organlari, ichki ishlar organlari, ommaviy axborot vositalariga ta'sir o'tkazishga harakat qilish.
2. Guvohlarni qo'rqitish, guvohlarni yolg'on ko'rsatma berish va o'zgartirishga harakat qilish.
3. Jabrlanuvchi va guvohlarni jismonan yo'q qilish.
4. Guvohlarni o'ldirish bilan qo'rqitish, yaqinlariga zarar yetkazish bilan qo'rqitish yoki yo'q qilishga qaratilgan harakatlar.
5. Jinoiy guruhning himoyachilari qonuniy yo'l yoki yolg'on harakatlar bilan tergovga ta'sir qilish.

Quyidagilar jinoyatlarni yopishga qaratilgan harakatlar bo'lib, bu jinoyatchilarning ta'sir ishidir.

1. Tergov-qidiruv ishlarini to'g'ri olib borish, jinoyatchilarga yaxshi muomala qilib, qarshi harakatlar olib borish.
2. Tergov olib borishda uyushgan jinoiy guruh orasiga maxsus agentlar qo'shish. Bu jinoyatni ochishda juda kerakli ma'lumotlar yig'ishga yordam beradi.
3. Guvohlar va jabrlanuvchilarni himoya qilish dasturi bilan ishlash.
4. Jinoyatni ochish uchun maxsus texnikalar yordamida jabrlanuvchi, guvohlar va gumondorlarni kuzatish.
5. Axborotlar chiqib ketishini to'xtatish yoki yo'qotish.
6. Ommaviy axborot vositalaridan tergovga yordam sifatida foydalanish.

Taqdqiqot natijalari

Olib boriladigan barcha harakatlar jinoiy huquq talablari doirasida amalga oshiriladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, operativ qidiruv natijasida olingan tergov materiallari uyushgan jinoiy guruh sodir etgan jinoyatlarni ochishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, jinoyatni ochish uchun foydalanilgan tergovdagi ishtirokchilar himoyasi va boshqalar hisobga olinadi. Shunday qilib,

uyushgan jinoiy faoliyatni ochish uchun kuchli malaka va bilim kerak bo'ladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar malaka, bilim evaziga uyushgan jinoiy guruh jinoyatlariga qarshi kurashadilar.

Uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan qotilliklarni tergov qilishda belgilanadigan holatlarga quyidagilar kiradi: muayyan shaxsning zo'ravonlik bilan o'lishi; jinoyat vositasi to'g'risidagi ma'lumotlar; jinoyat sodir etilgan joy va vaqt; jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish shartlari. Ushbu holatlar hujum obyektiga qarab aniqlashtirilishi mumkin. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, tergovchi voqea haqida taxminiy fikr yuritadi va uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik xususiyatlariga asoslanib, jinoiyat ishi qo'zg'atadi va tergovni yuborishni rejalashtiradi, shuningdek, tergovning dastlabki bosqichining shoshilinch chora-tadbirlari ro'yxatini ko'rsatadi.

Uyushgan guruhlar jinoyatlarini tergov qilishning dastlabki bosqichida uchta tipik tergov holati mavjud.

1. Guruh a'zolari – qurol, portlovchi moddalar, zarur texnik vositalarni qo'lga kiritish bilan jinoyat sodir etish uchun faol tayyorgarlik ko'rmoqda.
2. Jinoiy harakatni amalga oshirish davom etmoqda.
3. Uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoiy faoliyat allaqachon yakunlangani haqida fakt mavjud.

Ushbu holatlarning har biri jinoiy harakatning muayyan mexanizmi bilan bog'liq bo'lgan kam qamrovli, shuningdek, jinoyatni aniqlash, bostirish va fosh qilish faktlari bilan tergov holatlarini o'z ichiga olishi mumkin. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashni jinoyat-protsessual tartibga solish doirasida isbotlash muammosi, ayniqsa, dolzarbdir.

Amalga oshirilgan qilmishning uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilganligi to'g'risida axborot olishning samarali vositalaridan biri bo'lgan so'roq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So'roq qilish keng tarqalgan tergov harakati bo'lib, jinoyatni amalga oshirish maqsadi, sababi va motivi singari murakkab elementlar haqida to'liq ma'lumot bera oladigan vositadir. So'roq qilish predmeti jinoiy, ya'ni aniqlanishi kerak bo'lgan holatlar doirasi, umumiy ko'rinishda isbotlash predmetiga kiradi.

Jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha ishlarda so'roq qilishning xususiyatlariga faqat guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyat faktini tasdiqlaydigan ma'lumotlarni aniqlab olish emas, balki guruh haqida, har bir ishtirokchining roli va aybi haqida iloji boricha to'liq ma'lumot olish kiradi.

So'roqni taktik ta'minlash uni amalga oshirish va tuzish usullari, kerak bo'lganda, so'roq rejasini tuzishdan iborat. Bunday reja quyidagi shartlarni hisobga olib tuzilishi zarur:

- 1) tezkor ma'lumotlardan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lsa, so'roq qilinuvchiga ma'lumot manbayini aytib qo'yishning oldini olish zarur;
- 2) jinoiy tashkilot ishtirokchilarini, ularning hamjamiyatidagi roldan qat'i nazar, so'roq qilishning murakkabligi bois so'roqning taktik usullarini chuqur o'ylab ko'rish, ularni qat'iy ketma-ketlikda o'tkazish, savolni to'g'ri qo'yish, so'roq qilinuvchining javobini oldindan bashorat qila olish lozim.



So'roq vaqtini aniqlashda guruh a'zolarini so'roq qilish ketma-ketligini tanlash muhimdir. Agar tezkor manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib, tashkilotning biron-bir a'zosining aybi kamrog'i yoki bardoshsizrog'i ma'lum bo'lsa, u holda so'roqni aynan shu shaxsdan boshlagan samarali hisoblanadi. Odatda buning aksi ro'y berishi mumkin: avval guruh rahbari so'roq qilinadi, undan haqiqiy ko'rsatmalar olishga erishilsa, qolgan sheriklarini so'roq qilish osonroq kechadi.

So'roq vaqtini aniqlashga tergov sirini saqlash ehtiyoji, jabrlanuvchi va guvohlarning xavfsizligini ta'minlash vazifalari kabi bir qator omillar ham ta'sir qiladi. So'roqqa chaqirish usuli ham taktik ahamiyatga ega. Bu yerda ovoza bo'lish, so'roq qilinuvchining so'roqqa kelishiga to'sqinlik qilinishi va hattoki u huquqni muhofaza qiluvchi organlar e'tibori doirasiga tushgani ma'lum bo'lganidan so'ng so'roq qilinuvchini yo'q qilishning ehtimolini inobatga olish zarur. So'roq qilishda magnit va videomagnitofon tasmlarini tayyorlash juda katta ahamiyatga ega.

Jabrlanuvchilar va guvohlarni so'roq qilish muhim ahamiyatga ega. Jabrlanuvchilarni so'roq qilish predmeti ularga nisbatan qilingan tajovuz aniq yoki noaniq bo'lganligiga qarab farqlanadi. Birinchi holatda bu kuch ishlatish, g'arazli va past niyatlarda mulkka qarshi jinoyatlardir; ikkinchi holatda faqat o'g'rilikdan iborat bo'lib, uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan ko'p sodir etiladi.

Jabrlanuvchiga tajovuz aniq holatda ro'y berganda, so'roqda quyidagilar batafsil aniqlanishi kerak: guruh jinoyatini sodir etishda ishtirok etgan jinoyatchilar soni, har birining harakatlari, ayniqsa, o'zlarini tutishi, laqab ishlatganliklari, jinoyat olamiga xos jargondan foydalanganliklari, harakatlarga kim rahbarlik qilganligi, kim nima bilan qurollanganligi, hujum qilganlar hodisa joyini qanday tark etganliklari va h.k. Xuddi shu tartib bo'yicha guvohlar ham so'roq qilinishi lozim, ammo bunda qo'shimcha tarzda ular hodisa vaqtida qayerda bo'lganliklari, jinoyatchi va jabrlanuvchilarning harakatlarini qay holatda kuzatganliklari ham aniqlanadi.

Jabrlanuvchilarni so'roq qilganda, ular qasos, achinish, guruh a'zolaridan faqat biri qo'lga tushganda esa boshqa ishtirokchilar oldida qo'rquv hissiyotlari tufayli yolg'on ko'rsatma berishlari mumkinligini inobatga olish zarur. Jabrlanuvchilar ba'zan guruh ishtirokchilarining barcha jinoiy harakatlari haqida ma'lumot bermay, ovoza bo'lishni xohlamasligini ro'kach qilib, ularni yashiradilar. Misol uchun, bosqinchilik to'g'risida xabar bermaydilar, zo'rlab nomusiga tegish to'g'risida indamaydilar.

Iqtisodiyot sohasida amalga oshirilgan jinoyatlar bo'yicha guvohlarni so'roq qilishning o'ziga xos jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bunday ishlar bo'yicha nazorat organlari xodimlari, ma'muriyat va ishlab chiqarishning turli soha rahbarlari, qo'riqlash xizmatidagilar, savdo xodimlari va boshqalar so'roq qilinadi. Ularni so'roq qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- talon-toroj qilishning tashkilotchisi kim bo'lgan, uning usuli va harakat rejasini kim ishlab chiqqan;
- jinoiy tashkilot qanday shakllangan, har bir ishtirokchi unga qay tariqa jalb etilgan;
- ushbu korxona xodimlaridan tashqari kimlar bu jinoiy tashkilotga a'zo;
- ishtirokchining vazifasi nimalardan iborat;

- jinoiy faoliyatdan tushgan mablag' qanday tartibda taqsimlanadi;
- tashkilotning boshqa a'zolari, xususan, rahbar bunga qanday munosabatda bo'lgan kabi savollar, albatta, aniqlanishi darkor.

Shuningdek, jinoyatni ochishda tergov jarayonida ko'rsatma berishdan voz kechganlarni ko'ndirish, guvoh yoki jabrlanuvchini yolg'on ko'rsatma berishdan qaytarish kabi holatlar uchraydi.

Xulosalar

Ushbu maqolada uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni dastlabki va keyingi tergov qilishdagi o'ziga xos jihatlar aniqlashtirildi. Shuningdek, uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik xususiyatlari, jinoyatning ushbu turdagi xarakterli belgilari to'g'risidagi o'zaro bog'liq va o'zaro aloqador ma'lumotlar tizimi ko'rib chiqildi. Tezkor qidiruv xodimlarining tergov harakatlarida aniqlanishi lozim bo'lgan protsessual harakatlar amalga oshirilishi ta'kidlandi. Qabul qilingan ma'lumotlarda aks ettirilgan tipik xususiyatlar jinoyat ishi bo'yicha tergovning dastlabki bosqichida tezkor-qidiruv, tergov va ekspert vazifalarini o'z vaqtida va samarali hal qilishga yordam beradigan kriminalistik usul va vositalardan foydalanishni belgilaydi.

REFERENCES

1. Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi [Methodology of crime investigation]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2017, p. 184.
2. Kriminalistika [Criminalistics]. Tashkent, 2018.
3. Abdumajidov F. et al. Kriminalistika [Criminalistics]. Tashkent, Adolat Publ., 2003, 362 p.
4. Sottiyeu I.A. Uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish [Classification of crimes committed by organized groups]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2012.
5. Chainey S.P., Berbotto A.A. A structured methodical process for populating a crime script of organized crime activity using. OSINT 2021.
6. Ohr B.G. Effective methods to combat transnational organized crime in criminal justice processes.
7. Meretukov G.M. Kriminalisticheskoye obespecheniye rassledovaniya prestupleniy, sovershayemykh organizovannymi prestupnymi gruppami [Forensic support for the investigation of crimes committed by organized criminal groups]. Krasnodar, 2010, p. 212.
8. Kolesnichenko A.N. Nauchnyye i pravovyye osnovy rassledovaniya otdel'nykh vidov prestupleniy [Scientific and legal basis for the investigation of certain types of crimes]. Abstract of Doctor's degree Dissertation. Kharkov, 1967, p. 16.



9. Lozovskiy D.N. Otdel'nyye voprosy kriminalisticheskogo analiza organizovannoy prestupnoy deyatel'nosti [Selected issues of forensic analysis of organized criminal activity]. *Criminalistics and Forensic Activities in Modern Conditions*, 2016, p. 75.

10. Vozgrin I.A. Nauchnyye osnovy kriminalisticheskoy metodiki rassledovaniya prestupleniy [Scientific foundations of forensic methods for investigating crimes]. St. Petersburg, 1993, part 4, p. 27.

11. Zuyev S.V. Obespecheniye bezopasnosti «zashchishchayemykh lits» po delam o prestupleniyakh, sovershayemykh organizovannymi gruppami i prestupnymi soobshchestvami (prestupnymi organizatsiyami) [Ensuring the safety of “protected persons” in cases of crimes committed by organized groups and criminal communities (criminal organizations)]. *Bulletin of the South Ural State University*, 2016, no. 7 (266), pp. 49-53.

12. Lozovskiy D.N. Nekotoryye aspekty ispol'zovaniya kriminalisticheskikh metodov v protsesse protivodeystviya organizovannoy prestupnoy deyatel'nosti [Some aspects of the use of forensic methods in the process of counteracting organized criminal activity]. *Society and Law*, 2015, no. 2 (34), pp. 257-262.

13. Pantyukhina G.A. Vzaimodeystviye sledovatelya i operativnykh sotrudnikov pri rassledovanii prestupleniy po delam organizovannykh prestupnykh grupp [Interaction of the investigator and operational officers in the investigation of crimes in cases of organized criminal groups]. *Russian Legal Journal*, 2014, no. 5, pp. 58-61.

14. Staroverov A.V. K voprosu o ponyatii organizovannoy prestupnosti [To the question of the concept of organized crime]. *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2017, no. 1, pp. 171-176.

15. Shalagin A.Ye., Shlyakhtin Ye.P. Problemy preduprezhdeniya i protivodeystviya organizovannoy prestupnosti [Problems of preventing and counteracting organized crime]. *Bulletin of the Kazan Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2015, no. 2 (20), pp. 89-96.

KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 1-son

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.1

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR:

N. Salayev

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori – bosh muharrir

BOSH MUHARRIR:

Y. Kolenko

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i – bosh muharrir

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

D. Bazarova

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor – bosh muharrir o'rinbosari

Mas'ul muharrir: K. Hakimov

Muharrirlar: F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 2023-yil 29-aprelda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 7,44 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 20.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti